

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK 78:371,3**

**Abdullayev Parviz**

**“Bastakor xoji Abdulaziz Abdurasulov hayotiva ijodini  
o'rganishning yoshlar tarbiyasiga tutgan o'rni”**

**5A111101-Musiqiy ta'lim mutaxassisligi**

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN  
DISSERTATSIYA**

Magistrlik ishi “Musiqi ta'limi” kafedrasida 2015 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ № \_\_ yig'ilishida ko'rib  
chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Prof. A.Ergashev\_\_\_\_\_**

**“Pedagogika” fakulteti**

**“Musiqi ta'limi” kafedrasida mudiri dot.**

**E.K.Jalilov\_\_\_\_\_**

**SAMARQAND -2016**

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| KIRISH.....  | 3  |
| <b>I.BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI</b>                                |    |
| 1.1. Yoshlar tarbiyasida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatish pedagogik muammo sifatida.....                      | 10 |
| 1.2. Kasb-hunar kollejlarda bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishning holati.....                                  | 19 |
| 1.3. O‘quvchi-yoshlarga Hofiz Abdulaziz Abdurasulov ijodini o‘rgatishning tarbiyaviy imkoniyatlari.....                                      | 25 |
| Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....  | 31 |
| <b>II.BOB. YOSHLARGA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI</b>                               |    |
| 2.1. Dars jarayonida o‘quvchilarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatish amaliy shakllari.....                              | 32 |
| 2.2. Tarbiyaviy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi orqali tarbiyaviy ta’sir etish.....                     | 44 |
| Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....  | 58 |
| <b>III BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHGA YO‘NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI</b> |    |
| 3.1. Pedagogik eksperiment boshida Hofiz ijodi orqali o‘qituvchilarda axloqiy fazilatlarining shakllanganlik darajasini aniqlash.....        | 59 |
| 3.2. Pedagogik eksperiment yakunidagi tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili.....  | 62 |
| Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....  | 67 |
| <b>Xulosa</b> .....  | 68 |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....  | 72 |
| <b>Ilovalar</b> .....  | 76 |

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqil Respublikamizning barcha sohalaridagi rivojlanishi jahonning ilg'or mamlakatlarida qo'llanilayotgan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish ko'lami va sifatiga ham bog'liq. Bu meroslar tizimida badiiy-musiqiy qadriyatlar ham o'z o'rnini va nufuziga ega. Zero millatning, jamiyatning milliy mafkurasini shakllantiruvchi tarbiyaviy quroldir.

O'tgan davr va hozirgi zamon o'zbek xalq qushiqlarini tahlil qilar ekanmiz, ularni qudratli tarbiya vositalaridan biri deb ta'kidlashga haqlimiz. Ulardagi ma'naviy va estetik g'oyalar o'quvchi-yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, do'stlik, halollik, salbiy ko'rinishlarga nisbatan murossasizlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga ijobiy ta'sir etib badiiy didini o'stiradi. Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihati uning matnida o'z ifodasini topadi.

Inson ma'naviy komolotida musiqaning o'rnini beqiyos. SHuday ekan o'quvchilarga musiqiy bilim, ko'nikma, estetik didini, tabiyat va jamiyatdagi guzalliklarni his qilish va hayotini guzal tashkil qila olishi uchun ta'lim muassasalarida musiqa ta'limini o'rgatishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Islom Karimovning 2008 yil 8-iyuldagi «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida»gi qarori bilan musiqa ta'limi sohasida yangi bir tarixiy davr boshlandi. Keyingi o'quv yillarida ham bu boradagi islohatlar izchillik bilan davom ettirildi. Jumladan, 2009-2012 yillarda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 175 ta bolalar musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi<sup>1</sup>.

O'tmishda yashab ijod etgan ulug' ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiyning ilmiy-ma'naviy meroslaridan

---

<sup>1</sup> Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўрганиш бўйича ЎҚУВ-УСЛУБИЙ ҚЎЛЛАНМА. Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 2014 йил, 100 -бет.

yoshlarni keng bahramand qilib borish, shuningdek yaqin o‘tmishda yashab ijod qilgan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Sadridin Ayniy kabilarning pedagogik fikr va qarashlarini bugungi ta‘lim-tarbiyaga bog‘lash natijasida yaxshi samaraga erishish mumkinligi bugungi kunda o‘z isbotini topdi. SHuning uchun ham uzluksiz ta‘lim tizimida ajdodlarimizning ma‘naviy merosini o‘quvchilarga singdirish dolzarb vazifalardan biridir.

Ammo kollej musiqa darslarida o‘quvchilarga bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rganishga va uning ma‘naviy merosining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rnini pedagogik jihatdan tadqiq etilmagan. Vaholangki kollejda musiqa darslari fan dasturlarida o‘quvchilargi hofiz ijodini o‘rgatish belgilangan.

XIX va XX asr boshlarida o‘zbek milliy qo‘shiqchiligi asosan to‘rt yo‘nalishda: Xorazm yo‘li; Buxoro-Samarqand yo‘li; Farg‘ona-Toshkent yo‘li; Surxandaryo-Qashqadaryo yo‘nalishlarida rivojlangan.

Bu davrda xalqimiz orasida o‘zbek musiqa va qo‘shiqchilik san‘atini SHarq va Evropaga tanitgan mashhur hofizlar etishib chiqdilar. SHulardan biri Hoji Abdulaziz Abdurasulovdir. Bu hofiz Eron va Afg‘oniston, Arabiston, Iroq, Hindiston, va YUnonistonda, Afrika mamlakatlarida o‘z ijrochilik san‘ati bilan tanilgan edi<sup>2</sup>. U erda kishilar hayoti, ularning marosimlari, musiqa va qo‘shiqlari, she‘riyati bilan yaqindan tanishgan<sup>3</sup>.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov Samarqand maqom maktabining poydevoriga tamal toshini qo‘ygan buyuk san‘atkordir. U maqom qo‘shiqlarini a‘lo darajada o‘zlashtirib olanligi, ularni etarli darajada bilganligi uchun ham o‘ziga xos go‘zal usullarda ijro etgan. Iste‘dodli xofiz o‘zaro ijro etgan maqomlarga ijodiy, munosabatda bo‘lib, ularga turfa yangiliklar kiritadi. Bunday sehrli iste‘dodga ega bo‘lish uchun avvalombor Alloh tuhfa etgan kuchli ovoz bo‘lishi kerak,

---

<sup>2</sup> Бадиров А., Киямон Н., Холикулов Р. Самарқанддан таралгай жаҳонга ШАРҚ ТАРОНАЛАРИ. Т.: «Наврўз», 2013. 10-б.

<sup>3</sup> Олимжон Ғафуров, Равшан Ҳамроқуловлар “Абдулазиз хофиз” Самарқанд, 1996. 86 б.

ikkinchidan bu ovozdan mohirlik bilan foydalana bilish qobiliyat egasi bo'lish lozim. Hoji Abdulaziz Abdurasulovda ana shu mushtaraklik zohir edi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Musiqiy pedagogik meros va amaliyotdan ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha G'.Najmiddinov, D.Jamolov, B.Karomatovlar tadqiqot olib borishgan.

R.Abdullaev, S.Begmatov, O.Ibragimov, F.Karomatov, I.Rajabov, T.G'afurbekov, M.Qodirovlarning tadqiqotlarida o'zbek mumtoz musiqiy merosi, folklor qo'shiqlarining tarixi, nazariyasi, xususiyatlarini tadqiq etishgan.

A.Hasanov, H.Nurmatov, F.Juraev, D.Kamolova, O.Vasilchenko, B.Azimov, S.Annamuratova, J.Janaydarov, F.Xalilovlarning ilmiy tadqiqotlari esa san'atning turli janrlari vositasida estetik tarbiyani shakllantirishning ilmiy muammolarini yoritgan.

M.Qosimova, D.Ro'ziev, N.Toliboev, H.Nurmatov, A.Hasanovlar xalq musiqasi orqali tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid masalalarni tadqiq etishgan.

Pedagogika fanlar nomzodi K.Mamirov "Boshlang'ich sinf musiqa darslari orqali o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash" – muammosini to'liqligicha yoritishga harakat qilgan.

R.Qodirovning "Umumta'lim maktablari musiqa darslarida axloqiy estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari" nomli dissertatsiyasida, o'quvchilarning qo'shiq o'rganish hamda musiqa tinglash jarayonida estetik dunyoqarashning pedagogik asoslari, turli xil optimal uslublar orqali tahlil qilib berilgan.

N.Toliboev "O'quvchilarni musiqa darslarida o'zbek xalq og'zaki ijodi orqali estetik dunyoqarashini shakllantirish" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, o'tmish merosimiz-xalq og'zaki ijodini o'quvchilar tarbiyasida tutgan o'rni va uni yanada takomillashtirish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqilgan.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida o'zbek milliy qo'shiqchiligi nomoyondasi Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi etarli darajada taqiq etilmagan. Mashhur hofiz tomonidan yaratilgan "Beboqcha", "Gulzorim", "Bozorgoniy", "Samarqand Ushshog'i", "Iroq Hoji", "Qurbon o'lam", "Arzimni aytay", "Mustahzod",

“Chapandozi Navo”, “Nasrullovi”, “Chapandozi Gulyor” kabi mumtoz qo‘shiqalar kuy va qo‘shiqqa tashna xalqimizning yuragidan joy olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hofizning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, u san‘at gulshaniga katta bir yangilik bilan kirib keldi. U kishi dutor asbobida maqom yo‘llarini ijro etdi. Bu esa uning aqlu zakovat, teran fikrlash qobiliyat egasi, musiqashunos ekanligidan yorqin dalolat beradi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini, hayotdagi kechirgan voqealarini Aminjon SHaripov “Hofiz yurgan yo‘llarda”<sup>4</sup> nomli ocherkida hofizning san‘atdagi betakror yo‘li hamda hofizning zamodosh va izdoshlari haqida hikoya qilgan. Mahmud Ahmedov “Doni Zokirov”<sup>5</sup>, “YUnus Rajabiy”<sup>6</sup> nomli qo‘llanmasida hofizning hayot yo‘li va uning san‘at olamiga kirib kelishi hamda o‘zbek san‘atining ravnaqi yo‘lida qo‘lga kiritgan yutuqlari to‘g‘risida so‘z yuritgan. Olimjon G‘afurov va Ravshan Hamroqulovlar “Abdulaziz hofiz”<sup>7</sup> nomli qo‘llanmasida, ustoz Hasan YUsupov “Xalq suygan san‘atkor”<sup>8</sup> nomli risolasida Hoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodidan lavhalar keltirgan. Benazir san‘atkorning ijrochilik maktabi Samarqandda tug‘ildi, shakllandi va umummillatning bebaho ma‘naviy mulkiga aylandi.

Mustaqillik sharofati tufayli, hozirgi kunlarda ham yangi saodatli umrini boshdan kechirmoqda. Betakror ovoz sohibi, ulkan san‘atkor Hoji Abdulaziz Abdurasulov nomidagi Samarqand san‘at kollejini har yili yuzlab iqtidorli yoshlar bitirib chiqmoqda.

Hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulovning Muxtor Ashrafiy, YUnus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Inomjon Ikromov, Mutavakkil Burhonov, Doni Zokirov, Manas Leviev ota-bola Nabi va Telman Hasanov, Qori Siroj YUsupov, SHarifjon Akromov singari is‘tedodli shogirdlar O‘zbekistonda musiqaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar<sup>9</sup>. Bu ustozu shogirdlik an‘analari hozirgi kunimizda ham

---

<sup>4</sup> Aminjon Шарипов “Хофиз юрган йўлларида” Самарқанд, “Зарафшон”, 1996. 60 б.

<sup>5</sup> Маҳмуд Аҳмедов “Дони Зокиров” Т.: “Ибн Сино”, 1995. 69-98-б.

<sup>6</sup> М.Аҳмедов. «Юнус Ражабий», Т.: «Ғофур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти», 1980. 14-18-б.

<sup>7</sup> Олимжон Ғафуров, Равшан Ҳамроқулловлар “Абдулазиз хофиз” Самарқанд, 1996. 86 б.

<sup>8</sup> Ҳасан Юсупов. Халқ суйган санъаткор. Т.: “Истиқлол”, 2012 йил, 72 бет.

<sup>9</sup> Самарқанддан таралгай жаҳонга ШАРҚ ТАРОНАЛАРИ. Т.: «Наврўз», 2013. 10-11-б.

davom ettib, ular safida Abduhoshim Ismoilov, O'limas Boboev, Rustam Abdullaev, Ravshan Hamroqulov kabi o'ta iste'dodli bastakorlar jonbozlik bilan ishlab kelmoqda.

Yuqoridagi bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarga musiqa fani namunaviy dasturiga Samarqandlik hofiz, bastakor, sozanda Hoji Abdulaziz Abdurasulovni kiritilganligi be'jiz emas. Shu maqsaddan kelib chiqib biz mazkur magistrlik dissertatsiya ishimiz mavzusini "Bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganishning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni" deb tanlashimizga asos bo'ldi. Chunki Hoji Abdulaziz Abdurasulovning musiqa ijodiga qo'shgan hissalarini o'quvchi-yoshlarga singdirish borasidagi metodika etarli darajada ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanmagan.

**Tadqiqotning maqsadi** –Bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganishning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rnini asoslash va uni amalga oshirishga metodik tayyorlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

1. Pedagogika va musiqaga oid adabiyotlarda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganish orqali hofiz haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlarni taxlil qilish.

2. O'quvchi yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash.

3. O'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish.

4. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'quvchilarga maktab musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning ta'sirchan shakllari, usul va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish.

6. Kollejning bo'lajak musiqa o'qituvchilariga musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishni samaradorligini oshirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob’ekti.** Bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayoni.

**Tadqiqot predmeti.** Bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rganishning mazmuni, shakl va metodlari.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta’lim-tarbiya va ma’naviyatga doir asarlari, nutqlari, ushbu mavzuga oid tarixchi, faylasuf, pedagog, musiqashunos olimarning fundamental ilmiy tadqiqotlari, namunaviy fan dasturlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi va himoyaga quyidagi holatlar olib chiqiladi:**

1. Bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘quvchi-yoshlar tarbiyasida o‘rganish dolzarb pedagogik zaruriyat ekanligi;

2. Pedagogika va musiqa o‘g‘ir adabiyotlarda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rganish;

3. O‘quvchi yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llari;

4. O‘quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari;

5. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘quvchilarga maktab musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning ta’sirchan shakli, usul va vositalaridan foydalanish yo‘llari;

6. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish texnologiyasi;

7. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishga oid metodik tavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki o'qituvchilar bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'quvchi-yoshlarga o'rganish ishini yangi nazariy qarashlar metodlar bilan boyitiladi, yoshlar tarbiyasida Hoji Abdulaziz Abdurasulovning tutgan o'rni pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalaridan maktab va kasb-hunar kollejlari ta'lim-tarbiya jarayonida samrali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot bosqichlari.** Ilmiy tadqiqot ishi 2014-2016 yillarda bir biri bilan uzviy aloqador bo'lgan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**Birinchi bosqich (2014 yil sentyabr-2015 yil yanvar)** da mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, manbalar o'rganiladi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi, tadqiqot muammosi asoslandi, ilmiy yo'nalish ishlab chiqiladi;

**Ikkinchi bosqich (2015 fevral – 2016 yil yanvar)** da tadqiqot maqsadi va vazifalariga oid muammolar bo'yicha Samarqand san'at kolleji o'quvchilari bilan test, anketa so'rovlari, suhbatlar, kuzatishlar o'tkazildi;

**Uchinchi bosqich (2016 yil fevral-may)** tadqiqot natijalari umumlashtiriladi. Umumiy xulosalar hamda o'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini shakllantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## **I.BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Yoshlar tarbiyasida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatish pedagogik muammo sifatida**

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o‘zbek xalqining ta’lim-tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o‘rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov «Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir» -deb ta’kidlaydi<sup>10</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilanib, uni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan deb hisoblanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday yozadi: “Eng muhim vazifa shundan iboratki, o‘zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz-avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab, yanada boyitishimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo‘lmog‘imiz darkor”<sup>11</sup>.

---

<sup>10</sup> И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон, 1993. 35-82 б.

<sup>11</sup> Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 100.

Demak, bugungi kunda yosh avlodni har jihatdan barkamol inson sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimida o'rganilishi dolzarb muammolardandir.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida 2014 yilning 15-16 may kunlari bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy konferensiya O'rta asr SHarq ilm-fani taraqqiyoti, SHarq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy merosi va uning bugungi sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalarini yoritishga qaratilgani bilan dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi.

Musiqamiz tarixiga nazar solmoqchi bo'lsak, uning ildizi uzoq asrlarga borib taqalgan bo'lib, bahri ummondek tubsizdir. Bu sehrli san'at Samarqandda eramizning birinchi asrlaridayoq shakllandi va ming yillar davomida takomillasha borib, musiqa ijrochiligi soxasida katta yutuqlarga erishdi. Albatta, bu borada mohir xonanda va sozandalarning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Ayniqsa, Temur va temuriylar davriga kelib bu san'at yanada gullab yashnadi. Juda ko'pgina san'atkorlar - hofiz Sulton, hofiz Charog'don, xofiz Mir Vafo, ustoz Ahmad g'ijkakchi, ustoz Ali Takburiy kabi sozanda va hofizlar o'zlarining tug'ma iste'dodlari bilan barchani lol qoldirib xalq orasida mashhur bo'lishgan. Mumtoz hofiz va sozandalarimiz o'zlarining jo'shqin ijodlari bilan badiyat olovini o'chirmay, uning cho'g'ini o'zlaridan keyingi avlodlarga qoldirib ketganlar. Qo'shiq, hamisha zamon va inson xizmatida bo'lgan. Hofizlar ijro etgan qo'shiqlar yaxshilikni alqashga, yomonlikni qoralashga hamda davr ruhini ifodalashga yo'naltirilgan. Qo'shiqlarga mashaqqatli kunlarda ruhiy madad berib, ularni qiyinchiliklarga kurashib yengishga, yaxshi yashashga ilhomlantirgan.

Qalbi ezgulik bilan yo'g'irilgan inson, avlodlarga ma'naviy boylik qoldirishni, yuragidan bir bo'lak qo'shiq hadya etishini ulkan baxt deb biladi. Xalqimiz orasida ana shunday saxiy qalb egasi hofiz, sozanda, o'zining shirali ovozi, bilimi va zukkoligi bilan dong taratgan san'atkorlar juda ko'p bo'lgan. Buyuk san'atkorlik, istedadli bastakorligi, mohir ijrochiligi o'zbek va tojik xalqining musiqiy merosi bo'lmish shashmaqom ilmining bilimdonligi bilan butun markaziy Osiyo hamda uning atrofidagi o'lkalarga ma'lum va mashhur bo'lgan, musiqamiz tarixiga o'chmas iz qoldirgan ana shunday kishilardan biri Xoji Abdulaziz Abdurasulovdir.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov xonanda, sozanda, bastakor, O'zbekiston xalq artisti. Tanbur ijrochiligi va Shashmaqomning cholg'u yo'llarini Hoji Raximberdidan, hofizlik san'ati sirlarini hamda Nasr sho'balarini samarqandlik Borux hofiz, keyinchalik Ota Jaloldan o'rgangan. 1887-1888 va 1907-1908 yillarda Haj safarlarini qilib Eron, Arabiston, Hindiston, Afg'oniston xalqlari musiqa madaniyati, ijrochilik uslublari bilan tanishgan. O'z san'atini ham namoyish etgan<sup>12</sup>. 1920 yillari konsert guruhlarida qatnashgan, musiqa to'garaklarini tashkil etgan. 1928-1931 yillarda Samarqand musiqa va xoreografiya institutida o'qituvchi bo'lan<sup>13</sup>.

M.Ashrafiy, T.Sodiqov, YU.Rajabiy va R.Rajabiy, I.Ikromov, M.Burxonov, D.Zokirov, M.Leviev, N.Hasanov kabi san'atkorlar Hoji Abdulazizdan ta'lim olishgan<sup>14</sup>.

Hoji Abdulaziz murakkab ashulla yo'llarini o'z ovozigacha moslab, ijodiy yondoshgan holda o'zbek va tojik tillarida mahorat bilan aytgan. U «Guluzorim»ga Zebo pari, «Beboqcha» va «Ushshoq» yo'llariga Namudi Uzzol «Abdurahmonbegi»ga Namudi Navo avjlarini bog'lab, ularning ta'sirchanlik va yoqimlilik kuchini ortirgan. «Ushshoq» shu tufayli ham «Ushshoqi Hoji» va «Samarqand Ushshog'i» nomlari bilan mashhur bo'lgan<sup>15</sup>. Bastakor yaratgan «Gullar bog'i» ashullasi hozir ham xalqqa manzur.

Xonanda repertuarida 200 dan ortiq halq ashullalari va maqom yo'llari bo'lib, ular ichida mumtoz musiqa asarlari asosiy o'rin tutgan. Jumladan, «Ushshoq» uning «Rosti Panjgoh», «Iroq» va «Navo» maqomlari yo'li, «Abdurahmonbegi -1», uning ufari, «Nasrullovi», «Iroq»ning qashg'archasi va ufari, «Gulyor», «Orazi Gulyor», «Ufar», «Arzimni aytay», «Qurbon o'lam» va boshqa ko'plab kuy va ashulla yo'llari alohida ajralib turadi. Ularni Hoji Abdulaziz SHarq mumtoz shoirlari Hofiz, Navoiy, Fizuliy, Zebuniso, Amiriy, Fazliy

<sup>12</sup> Ўзбек совет энциклопедияси. 14-том. Т.: «Ўзбек совет энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 1980 йил, 453-б.

<sup>13</sup> Ўзбек миллий энциклопедияси. 11-том. Тошкент, «Ўзбек миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2005 йил, 368-б.

<sup>14</sup> Ўзбек халқ музыкаси. 1-4-жилдлар, Т.: 1955. 58-б.

<sup>15</sup> Аҳмедова М., Олимбоева К., «Ўзбек халқ созандалари» тўплами. Т.: 1959.

kabilarning g‘azallari bilan aytgan. Hoji Abdulaziz mohir sozanda sifatida ham tanilgan bo‘lib, maqom yo‘llarini tanbur va dutorda ijro etgan. Ijrosidagi ko‘pgina ashullalar 1909 yildan boshlab gramplastinka va fonograflarga yozib oligan. Samarqand musiqa kollejiga Hoji Abdulaziz nomi berilgan. 1997 yildan Samarqandda Hoji Abdulaziz nomidagi xonandalar tanlovi o‘tkazilmoqda. U kishining vafotidan so‘ng 2001 yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan<sup>16</sup>.

Xoji Abdulaziz Abdurasulovning qo‘shiqlari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida go‘yo tekis sahroda to‘satdan baland togilar vujudga kelgandek, paydo bo‘lib, musiqa olamni kamalak ranglari kabi bezadi. Mashhur xofiz tomonidan yaratilgan "Bebog‘cha", "Gulzorim", "Bozurgoniy", "Samarkand Ushshog‘i", "Ushshog‘i Xoji", "Iroqi Xoji". "Qurbon o‘lam", "Arzimni aytay", "Mustahzod" "Chapandozi Navo", "Nasrulloyya", "Chapandozi Gulyor" kabi mumtoz qo‘shiqlar kuy va qo‘shiqqa tashna xalqimizning yuragidan joy olgan.

Hofizning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, u san‘at gulshaniga katta bir yangilik bilan kirib keldi. U dutor asbobida maqom yo‘llarini ijro etib o‘zining davrigacha bo‘lgan an‘ana -tanbur va setorda ijro etish qoidasini "buzdi". Bu esa Xoji Abdulaziz Abdurasulovning aqlu zakovat, teran fikrlash qobiliyat egasi, musiqashunos ekanligidan yorqin dalolat berib turibdi.

Ajoyib bir kuy yoki qo‘shiq yaratib shuhrat qozonish oson emas. Buning uchun tunlarni uyqusiz, kunlarni xalovatsiz utkazish lozim. Ana shunday mashaqqatlar evaziga yaratilgan asar albatta, el dilidan bir umrga joy oladi. Ishimizning yoshlarga tarbiyasidagi o‘rnini ochish uchun Xoji Abdulaziz yashagan muxit va sharoit, uning ustozlari sozandalik va xonandalik borasidagi kamoloti, bastakorlik faoliyati, shuningdek, milliy musiqamizni rivojlantirishdagi xayrli ishlari haqidagi ma‘lumotlarni keltiramiz.

Hoji Abdulaziz 1852 yilda Samarqand shahrida tug‘ildi, uning otasi Abdurasul juda yoshligida o‘z ukasi Abdulfayz bilan birgalikda Tojikistonning tog‘lik tumani – Qorategindan kelib, Samarqandda turib qolgandi.

---

<sup>16</sup> Ўзбек миллий энциклопедияси. 11-том. Тошкент, «Ўзбек миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2005 йил, 368-б.

Malumki, u vaqtlarda Abdurasul singari o'nlab va yuzlab tog'lik tojiklarni Samarqanddan boshqa shahar va tumanlarda ham uchratish mumkin edi. Tog'lik joylarning tez-tez o'zgarib turadigan iqlim sharoiti aholi yashashi uchun har doim qulay emasdi; kutilmaganda jala quyilishi, qattiq seldan keyin uy-joy, ekin, qo'y-qo'zilarining suv toshqini ostida qolib ketishi kabi tabiiy ofatlar tog'liklarni ko'p qiyin ahvollarga solib qo'yardi. Bundan tashqari, kuz tamom bo'lishi bilan tog' yo'llarini qalin qor bosib qolardi, bunday hollarda qorlar erib yo'llar ochilguncha, bozor u yoqda tursin, yaqin qo'shni qishloqqa borish ham amri mahol edi.

Bunday og'ir sharoit tog'lik rayonlardagi ko'pgina kambag'allarni vohaga tushib tirikchilik o'tkazishga majbur qilardi. Darvoz, matchoh, qorategin singari tog'li rayonlardan shaharlarga kelgan kishilar 3, 4 ta bo'lishib arra, bolta, pona ko'tarib, shahar va qishloqlarda o'tin yorish, mardikorlik qilish, hodimlik va boshqa yumushlarni bajarish bilan kun kechiradilar. Odatda bu kishilar hayotga, odamlarga katta ishonch bilan qarardilar, ular soddadilligi, mehnatsevarligi, qora mehnatdan jirkanmasliklari tufayli hamma bilan qovushib keta berardilar. Barvasta, qora ko'z, qora qosh, qirra burun, jasoratli tojik yigitlar paxta xirmonlarida og'ir paxta toyni orqalab, liqillab turgan ensiz ingichka taxta norvondan yuqoriga botirlik bilan tikka chiqib borib, hammani hayratda qoldirardilar.

Kunlarning birida bu muloyim tabiat, xushsuhat, ochiq chehrali mehnatkash yigit – Abdurasul bir keksa kambag'al kosib cholga yoqib qoladi. Kosib uni uyiga olib borib mehmon qiladi va o'zining qarib qolganligini, bori-yo'g'i bitta qizi borligini, o'g'ri yo'qligini, agarda istasa uni shogird qilib olib, o'z kasbini o'rganmoqchi ekanligini aytadi.

Abdurasul kosib otaning taklifini sevinch bilan qabul qilib, ukasi bilan cholning uyida hayot kechira boshlaydi, uning to'quvchilik kasbini o'rganadi. Kosib ota sevimli qizi Maryamni holi yetganicha kichkina to'y qilib Abdurasulga nikohlab beradi va bir yil o'tar-o'tmas vafot etadi.

Abdurasul ukasi va xotinining yordami bilan marhum kosibning to'quvchilik do'konini bir oz kengaytirib ozroq pul orttiradi, qaynatasining shahar chekkasidagi

hovlisini sotib, shahar bozori yaqinidagi Ko'kmasjid mahallasidan kichik bir hovlini sotib oladi.

Oradan ikki yil o'tgandan keyin Abdurasul o'g'il ko'radi. Unga Abdulaziz deb ot qo'yadi, keyin yana bir qiz ko'radi.

Abdurasul o'g'li Abdulazizning kelajak taqdiri to'g'risida, uning tzq va tinch yashashini taminlash ustida bosh qotiradi va bu yo'lda hyech narsani ayammasdi. Abdulaziz 6-7 yoshga kirib, to'quvchilik do'koni ichida u-bu narsalarni olib berishga qurbi yetadigan "dastyor" bo'lganida, otasi uni bir qancha sovg'a-salom bilan eski boshlang'ich maktab domlasiga "Go'shti sizniki, suyagi bizniki", deya yalinib-yolvorib o'qishga beradi.

Abdulaziz tez vaqt ichida arab tilidagi bir necha duolarni, keyin "Haftiyak" ni yod oladi. U tojik tilida yozilgan "Chorkitob"ni boshqa maktabdoshlaridan ancha oldin yodlab oladi. Zehni o'tkir va ziyrak Abdulaziz sakkiz-o'n yillik darslarni to'rt yilda puxta bilib oladi. Buni ko'rgan domlasi o'zining qo'lidan kelgani shu ekanligini, bolaga bundan ortiq o'rgatadigan hyech narsani yo'qligini otasiga aytib, bolani madrasada o'qitishga maslahat beradi.

Shundan keyin Abdurasul o'g'lini Samarqanddagi madrasalardan biriga beradi. Besh yil davomida Abdulaziz madrasada arab tilida yozilgan "Muzziy", "Zanjoniyy" kitoblarini, Abdurahmon Jomiyning "Shahri mullo" nomli kitobini o'qib o'zlashtiradi.

U mana shu davrda, ya'ni 17-18 yasharligida Umar Xayyom, Xo'ja Hofiz, Shayx Sadiy, Abdurahmon Jomiy, Alishe'r Navoiy, Mirzo Bedil va boshqa atoqli shoirlarning asarlari bilan tanisha boshlaydi.

Shunday qilib, Abdulaziz, o'zining diliga yaqin bo'lgan she'riy asarlarni bemalol o'qib tushunadigan bo'lgach, otasiga ozim bo'lgan ma'lumotni olganligini va qolgan diniy madrasada o'qishni to'xtatadi. Abdulaziz madrasada boshqa mullavachchalardek faqat qozi yoki muftiy bo'lish uchungina o'qimadi, albatta.

Abdulazizning ziyrakligi, har narsani bilishga qiziqishi, ayniqsa muziqa mashg'ulotlariga bo'lgan zo'r ehtirosi ibtidoiy maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq sezila boshladi. Uning otasi hovlisidagi kichkina bostirmada

joylashgan to'quvchilik do'konida ishlab turib, yurti Qorateginni, qarishdosh-urug'larini eslab qo'shiqlar aytardi. Otasi bu qo'shiqlarda ko'pincha yurtining xushmanzara tog'larini, doim yashnab turadigan yam-yashil archazorlarini, shovullab oquvchi tog' daryosining so'lim sohillarini kuylar edi. Mana shu mungli qo'shiqlarni 8-9 yashar Abdulaziz kechalari churq etmasdan eshitib o'tirardi.

Bolani musiqaga qiziqtirgan asosiy narsa, bir tomondan, otasining qo'shiqlari bo'lsa, ikkinchi tomondan, bolalarning eng yaqin do'sti qo'g'irchog'bozlarning o'yinlari edi. Bordi-yu Ko'kmasjid mahallasidan qo'g'irchoqbozlarning surnaychi yoki doirachilar to'dasi o'tiradigan bo'lsa, Abdulaziz eshik berk bo'lsa, tuynukdan chiqib ketardi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov rivoyat qilishicha Hoji Abdulaziz Abdurasulovni o'z davridagi zamonasining o'ziga to'q boy insonlari hofizni hurmat qilar va u ularning davralarida hofizlik va soz chalib qo'shiqlar ijro etardi. Kunlardan bir kuni katta hurmat va ezozga sazovor bo'lgan Abdulazizni haj safariga birga borish taklif etiladi. Lekin u moliyaviy ahvoli kam bo'lganligi uchun borishga rozilik bermadi. Badavlat, o'ziga to'q insonlar Abdulazizni puli bo'lmasa ham o'zlari bilan birga olib ketishga rozilik bildirishdi.

Haj safari yo'lida, cho'lu-biyobonlar o'tishda ularga otliq qaroqchilar to'satdan hujum qiladilar va ham safariga boruvchilarni o'rab oladilar. Shunda haj safariga boruvchilar nima qilishlarini bilmay qolgan bir davrda Abdulaziz qo'lga sozini olib mungli, inson ruhiyatiga keskin ta'sir etuvchi kuy va ashulani aytadiki, qaroqchilar sardori Abdulazizni oldiga kelib hur, hur yig'lab, Abdulazizning yelkasini qattiq siqib va o'z otliq qaroqchilariga ishora qilib "Hey" deb orqaga qaytib, uning qo'shiq sehridan ta'sirlangan holda orqaga qaytib ketgan ekan. Shunda barcha haj safariga boruvchilar eson-omon borib kelgan ekanlar. Bu esa Hoji Abdulaziz Abdurasulovning qanchalik xudo tomondan berilgan qo'shiqning sehri, kuchi ekanligi ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham yurtboshimiz Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini mehr bilan o'rganib, uning yozgan asarlarini dildan kuylab keladilar. Bugungi kunda uning hayoti va ijodiyotini xalqimiz doimiy o'rganib bormoqda. Uning nomini abadiylashtirish uchun

Respublikamizdagi ko'plab maktablar, musiqa va san'at maktablari hamda san'at kollejlari hofiz va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov nomi bilan nomlanishi xalqimiz, san'atga ixlosmand yoshlar o'rtasida o'rganib borilishi muhim ahamiyat kasb etilishi bilan qimmatlidir.

Abdulaziz ikki marta Makkaga haj safariga boradi va safar davomida turli millat kuy va qo'shiqlari bilan tanishadi. Hoji Abdulaziz tanburni juda yaxshi chertsada, ashulalarni ko'proq duetlar jo'rligida ijro etardi. Uning dasturlaridan yuzlab ashulalar o'rin olgan bo'lib, hofizlikdan tashqari bastakorlik bilan ham shug'ullanardi. U yaratgan «Gulzorim» «Bozurgoniy», «Beboqcha» «Qurbon o'lam» ashulalari el orasida mashhur ijro sanaladi. 1909 yilda uning ijrosida Riga «Gramafon» firmasi «Iroq», «Nasrullohi», «Ushshoqlar»ni yozib olgan. 1928 yilda Samarqand musiqa va xareografiya institutiga ishga olinadi va u yerda bo'lg'usi mashhur san'atkorlar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burxonov, D.Zokirov va boshqalar uning ijodidan bahramand bo'ladilar. Ustoz san'atkor maqom ijrolarini boyitib, jumladan «Ushshoq»ni «Samarqand ushshoqi», «Qashqarchai ushshoq» yo'llarini va yana bir necha ijrolarini yaratadi. Ustoz juda ko'p shogirdlar yetishtiradi. Mashhur san'atkor Yunus Rajabiy shunday eslaydi: - Poytaxt Samarqand shahridagi paytlarda, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov, yana bir qancha san'atkorlar Hoji akaning uylarida yashab qo'shiq o'rganardik. Men Hoji aka aytgan qo'shiqlardan ta'sirlanib ertalabgacha uxlay olmasdim. Va birorta kuyni dilimga joylash uchun sekin xirgoyi qilib takrorlardim. Bordi-yu, biror joyni xato qilsam bormi, Hoji aka yotgan joyida menga qayrilib, «Hoy Yunusvoy, undoq emas mana bundoq bo'ladi» -deb o'zlari aytib berardilar.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijrosida qator qo'shiqlar gramplastinkalarga, radio tasmlariga yozib olingan. Ustoz hofiz sakson yoshda ham 1933 yil fevral oyida bo'lgan O'zbekiston san'atkorlarini birinchi slyotida qo'shiq aytish baxtiga muyassar bo'lgan. Shu kuni hoji Abdulaziz Abdurasulov va domla Halim Ibodovga «O'zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoni berildi. Ustozning tabarruk nomi mustaqillik yillarida ham eozozlandi Prezidentimiz farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi. Samarqand shahridagi san'at kolleji u kishining

nomlari qo'yildi. Samarqandda uning nomida yosh xonandalarning Respublika ko'rik tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

## **1.2. Kasb-hunar kollejlarda bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning holati**

O'tmishimizga bir nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar qadimiy san'at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz hayotida oltin xazina bo'lib jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkiru-allomalar, o'z davrining eng ilg'or kishilari hayotida, ularning o'lmas ijodi, izlanish va qarashlarida alohida bir nur taratib turuvchi o'rin tutganligini ko'ramiz. O'rta asrlarda o'z ilmlari, kashfiyotlari bilan Sharqni jahonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Xayyom, Kavkabiy, Changiy kabi ajdodlarimiz qatorida musiqiy san'atimiz solnomalarini davom ettirgan ko'plab hofizlarimiz Abdulaziz hofiz, K.Jabborov, J.Sutonov, F.Sodiqov, T.Jalilov, N.Hasanov, I.Ikromov, G'.Toshmatov, M.Muratozoyev, Yu.Rajabiy, F.Mamadaliyev, M.Muhamedovlar qatori O.Hotamov va K.Otaniyozov kabi davrimiz hofiz san'atkorlarining nomlarini sharaf bilan tilga olish, ularning hayoti va ijodini o'rganish biz yoshlarning vazifamiz ekanligi bugungi kunda dolzarbligi bilan qimmatlidir.

Xalq ijodiyoti ulkan ummondur. U doimo ijodkor ahlining mahsuli bilan boyib, muntazam ulkanlashib boraveradi. Zotan, bu ummon tarkibidan joy oladigan har bir namuna o'zining siru-sinoatlari, milliy an'analar, milliy ruhiyat va milliy qadriyatlar bilan sug'orilgan mezon bilan izohlanadi. O'zbek milliy musiqasi va adabiyotining shakllanib rivojlanishidagi asosiy poydevori ham shundadir. Qaysi-ki, istedod egasi milliy an'analarga asoslangan holda ijod qilar ekan, yaratgan asarlari milliy madaniyatimiz ravnaqidagi yorqin namunalar sifatida muhrlanadi. Davrlar o'tishi davomida esa, ular, avloddan-avlodga o'tib, ulkan ummon tarkibidan joy oladi va merosga aylanadi. Zamonamizning otaxon xofizlaridan biri, Xoji Abdulaziz Abdurasulov ana shunday ijodkorlardan hisoblanadi.

Xoji Abdulaziz Abdurasulov O'zbekiston xalq hofizi<sup>17</sup>, zabardast bastakor, mumtoz musiqa ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratishga erishgan, musiqa merosimiz xazinasini 500 dan ortiq mumtoz uslubdagi ashulalar bilan boyitgan asrimizning ustoz san'atkorlaridandir.

Malumki, o'zbek mumtoz musiqa san'ati o'tmish xonandayu sozanda va bastakorlarning ijodiy mahsuli. XX asrda ana shunday sharaflı ijodiyotni bir qator ustoz san'atkorlar davom ettirganlar.

Uzoq o'tmishdan milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, ruhiyatimiz asosida shakllangan ma'naviyatimizni munosib zamonaviy davomchilari desak adashmagan bo'lamiz. Zamondosh bastakorlarimiz, avvalo bilimdon, milliy meros ilmidan xabardor bo'lganlar. Shu bois ular tomonidan yaratilgan asarlar har tomonlama mukammal va xalqimiz ruhiyatini inikos etuvchi milliy ohanglar majmuidan tashkil topgan. Bastakorlarimizning musiqiy merosida nafaqat yangi musiqiy namunalar yaratish, balki o'tmish ijodkorlarining turli amallariga savtlar bog'lash, musiqiy turkumlarni yangi qismlar bilan to'ldirish kabi mumtoz an'analar ham o'z ifodasini topgan.

Kollejda o'quv jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida axborot texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim hisoblanadi. YOshlar tarbiyasida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodini o'rganishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'lashning o'rni benihoyadir.

Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o'rganishda ta'lim metodlarini tanlashda har bir dars vazifasidan kelib chiqib yondoshish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars oqilona tashkil etilishi, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi o'rganilib, ta'lim jarayonida faolligi mutassil ta'minlanishi, Hofiz ijodini o'quvchilarga kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochib berishda har bir uslubdan o'z o'rnida foydalanish, ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

---

<sup>17</sup> Ғофуров Олимжон Хуш наво истар кўнгил. Т.: «Наврўз», 2013. 36-б.

Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o‘rganishda jixozlangan xona, Nota daftar, ruchka, qalam, o‘chirg‘ich, chizg‘ich, Eshituv va yozuv texnik vositalari, og‘zaki, amaliy. o‘qituvchi darsning xususiyatidan kelib chiqib darsni o‘zi ijodiy belgilashi va yangiliklar kiritishi maqsadga muvofiq. SHuningdek, Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o‘rganishda audio, video, kompyuter texnikasi va DVD kabi didaktik vositalardan keng foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Xoji Abdulaziz ijodini o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalanilinish lozim. Ma’ruza, amaliy darslarida mavzuga mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar tatbiq etish samaradorlikni yanada oshiradi.

Tadqiqot ishimizning bugungi holatini o‘rganish borasida biz Samarqand san’at kollejining 3210602 “An’anaviy vokal artisti” kasbi bo‘yicha taxsil olayotgan o‘quvchilarga Vazirlikning 2012 yil, 15 avgustdagi 332-1-sonli, buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘QUV DASTURLarida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodini o‘rganishning yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rmini taxlil qilganimizda Hofizning ijodini bir qancha mavzular orqali singdirish imkoniyati borligi o‘rganildi. Buni quyidagi jadvalda keltirishimiz mumkin:

### Fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi tarkibi

| №                                      | Fan, bo‘limlari va mavzulari nomi   | Umumiy yuklama, soat |  |         |        |         |           |
|--|---|----------------------|--|---------|--------|---------|-----------|
|  |   | Hammasi              | Darslar turi bo‘yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi) |         |        |         |           |
|  |   |                      | Jami   | Nazariy | Amaliy | Seminar | YAkka ish |
| <b>2.16. Bastakorlar ijodi fanidan</b> |   |                      |  |         |        |         |           |
| 1                                      | Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyondalari: Ota Jalol, Xoji Abdulaziz, Nabi Xasanovlar xayoti va ijodi. | 6                    | 4  | 1       | 3      |         | 2         |
| <b>2.10 Mutaxassislik fani</b>         |   |                      |  |         |        |         |           |
| 2                                      | Xalq qo‘shiqlari, bastakorlar asarlaridan namunalar ijro qilish.  | 29                   | 20   |         |        | 20      | 9         |
| 3                                      | Mumtoz asarlar, maqomlardan   | 57                   | 40   |         |        | 40      | 17        |

|   |   |            |    |  |     |  |     |     |
|---|---|------------|----|--|-----|--|-----|-----|
|   | namunalar ijro etish.                           |            |    |  |     |  |     |     |
| 4                                       | Asarlarni badiiy tomonlarini yoritib berish.    | 57         | 40 |  |     |  | 40  | 17  |
| <b>2.12 Xonandalik ansambli fanidan</b> |   |            |    |  |     |  |     |     |
| 1                                       | Mumtoz kuy qo'shiqlari va maqomlardan namunalar | 88         | 60 |  | 60  |  |     | 28  |
| 2                                       | O'zbek bastakorlari asarlarini ijro etish       | 88         | 60 |  | 60  |  |     | 28  |
| <b>Jami</b>                             |   | <b>324</b> |    |  | 123 |  | 100 | 101 |

Jadvalda keltirilgan raqamlar ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishga etarli darajada belgilangan. Masalan mavzu doirasida ayrim misollar orqali keltirsak: masalan, "Xonandalik ansambli" fani musiqa kollejarida 3 kurs maboynida o'rganilishi fan dasturida keltirilgan. O'quvchilar har kursda masalan 1-semestrda 2-3 ta xalq yoki bastakorlar qo'shiqlarini, 2-semestrda SHashmaqom ashula bo'limidan 2 ta asar va uning taronasini, 3-semestrda 2-3 ta xalq yoki bastakorlar qo'shiqlarini, 4-semestrda 2-3 ta xalq yoki bastakorlar qo'shiqlarini ijro etish fan dasturida talab sifatida keltirilgan<sup>18</sup>. Dasturda keltirilgan mavzularning barchasida Xoji Abdulaziz ijodini o'rnish keltirilgan.

Bundan tashqari o'quvchi-yoshlarga xalq qo'shiqlari, xalq ashulla yo'llari bo'yicha mustaqil ishlar va bitirish imtixonlari belgilangan. Masalan o'quvchilar bitiruv bosqichida olti maqomdan birining (o'qituvchining tanlashi asosida) ashula bo'limining to'liq turkumlarini o'zlashtiradilar. Dasturning bitirish imtihoni mavzularida ham Xoji Abdulaziz ijodini o'rganish kiritilgan.

Ansamblning har bir tarkibi bir yil davomida kamida ikki marta ochiq yoki yopiq konsertlarda chiqishlari lozimligi, ushbu chiqishlarning sifatiga qarab o'quvchilarni sinov yoki imtixon sifatida qabul qilish mumkinligi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish o'quv rejasiga binoan amalga oshirib borilishi, o'quv reja va dastur talablarini to'liq bajarmagan o'quvchilarga keyingi

<sup>18</sup> Xonandalik ansambli fanidan ўқув дастури. Вазирликнинг 2012 йил 15 августдаги 332-1-сонли буйруғи билан тасдиқланган. 6-8 бетлар.

bosqichga o‘tishlari uchun ruxsat berilmasligi hamda sinov yoki imtihonlarda kamida 2 ta ashula ijro etilishi lozimligi talab sifatida keltirib o‘tilgan<sup>19</sup>.

“Bastakorlar ijodi” fani o‘quv dasturining 5-mavzusida Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari Ota Jalol (1845-1928). XIX asar ikkinchi yarmi ustozona musiqasining ulkan san’atkori, bastakor, xofiz-sozanda, Buxoro maktabi namoyandasi, «SHashmaqom»ning notaga tushirilishi va saqlanishi yo‘lida qo‘shgan xissasi, xayotining ta’rifi, bastakorlikda tutgan o‘rni, ustozlik faoliyati, shogirdlari xususida aytilish belgilangan.

Amaliy mashg‘ulotda Xoji Abdulaziz Abdurasulovning XIX asar ikkinchi yarmi – XX asr o‘zbek bastakorligining yorqin namoyandasi, Samarqand maktabi, ajoyib xofiz-sozanda, bastakor, asarlar muallifi ekanligi alohida urg‘u berib, batafsil bayon etish keltirilgan.

SHuningdek, mavzuda Xoji Abdulaziz Ijodiy uslubining ayrim xususiyatlari, turli ashulariga maqomlarda qo‘llanadigan ko‘chma avjlarni kiritishi va shu yo‘l orqali ashula janrini maqom xususiyatlari bilan boyitishi; o‘zga xalqlar musiqa xususiyatlarini ijodiy yondashuv orqali o‘z asarlariga tatbiq etishi haqida kollej o‘quvchilariga ilmiy nazariy va amaliy ma’lumot berish keltirilgan.

YAna dasturda Xoji Abdulazizning Asarlari: *ashulalar* – «Guluzorim» (A.Navoiy g‘azaliga Amiriy muhammasi), «Gullar bog‘i» (Nodira g‘azali), «Bebokcha» (A.Navoiy so‘zi), «Bozurgoniy: (Fuzuliy g‘azaliga Vola muhammasi), «Samarqand ushshog‘i» (Zebuniso she’ri), «Qurbon o‘lam» (Fuzuliy g‘azali); *cholg‘u kuylari* – «Tarannum», «Sayli qalandariy»larni o‘quvchi-yoshlar tinglashi va taxlil etish, Xoji Abdulaziz ijodining tarixiy ahamiyatini singdirishga alohida ahamiyat berib keltirilgan<sup>20</sup>.

Yuqoridagi keltirilgan fik-mulohazalardan shundan dalolat beradiki Respublikamizning barcha musiqa yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o‘rgatishning imkoniyati katta

<sup>19</sup> Хонандалик ансамбли фанидан ўқув дастури. Вазирликнинг 2012 йил 15 августдаги 332-1-сонли буйруғи билан тасдиқланган. 8 бет.

<sup>20</sup> Бастакорлар ижоди фанидан ўқув дастури. Вазирликнинг 2012 йил 15 августдаги 332-1-сонли буйруғи билан тасдиқланган. 5-7 бет.

ekanligi aniqlandi. Xofiz ijodi orqali o‘quvchilarda:

1. YOsh avlodda Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodini o‘rganish orqali milliy ong, mafkura va dunyoqarashni shakllantirish imkoniyati yaratiladi;

2. Bastakor Xoji Abdulaziz Abdurasulovning eng yaxshi asarlari va ularning tarbiyaviy jihatlari misolida tarbiyalashga erishish mumkin;

3. Yoshlarni Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini tinglash jarayonida uni ongli qabul qilish, musiqa asarini barcha qonuniyatlari bilan yaxlit anglay olishga erishish mumkin bo‘ladi;

4. Kollejda o‘quvchilarning Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o‘rganishdan olgan ma’naviy-axloqiy sifatlarini, musiqiy bilimlarini amaliy-ijrochilik faoliyatlarida qo‘llay olish ko‘nikma va odatlarni shakllanadi;

5. Xofiz ijodining tarbiyaviy jihatlari asoslaydigan o‘quv qo‘llanmalar, elektron qo‘llanmalar, metodik tavsiyanomalar yaratish orqali o‘quvchi-yoshlarni axloqiy tarbiyalashga erishish lozim deb o‘ylaymiz.

### **1.3. O‘quvchi-yoshlarga Hofiz Abdulaziz Abdurasulov ijodini o‘rgatishning tarbiyaviy imkoniyatlari**

O'tgan davr va hozirgi zamon o'zbek xalq qushiqlarini tahlil qilar ekanmiz, ularni qudratli tarbiya vositalaridan biri deb ta'kidlashga haqlimiz. Ulardagi ma'naviy va estetik g'oyalar o'quvchi-yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, do'stlik, halollik, salbiy ko'rinishlarga nisbatan murossasizlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga ijobiy ta'sir etib badiiy didini o'stiradi. Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihati uning matnida o'z ifodasini topadi.

Inson ma'naviy komolotida musiqaning o'rni beqiyos. SHuday ekan o'quvchilarga musiqiy bilim, ko'nikma, estetik didini, tabiyat va jamiyatdagi guzalliklarni his qilish va hayotini guzal tashkil qila olishi uchun ta'lim muassasalarida musiqa ta'limini o'rgatishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ammo kollej musiqa darslarida o'quvchilarga bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganishga va uning ma'naviy merosining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rnini pedagogik jihatdan tadqiq etilmagan. Vaholangki kollejda musiqa darslari fan dasturlarida o'quvchilargi hofiz ijodini o'rgatish belgilangan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov Samarqand maqom maktabining poydevoriga tamal toshini qo'ygan san'atkordir. U maqom qo'shiqlarini a'lo darajada o'zlashtirib olanligi, ularni etarli darajada bilganligi uchun ham o'ziga xos go'zal usullarda ijro etgan. Iste'dodli xofiz o'zaro ijro etgan maqomlarga ijodiy, munosabatda bo'lib, ularga turfa yangiliklar kiritadi. Bunday sehrli iste'dodga ega bo'lish uchun avvalombor Alloh tuhfa etgan kuchli ovoz bo'lishi kerak, ikkinchidan bu ovozdan mohirlik bilan foydalana bilish qobiliyat egasi bo'lish lozim. Hoji Abdulaziz Abdurasulovda ana shu mushtaraklik zohir edi.

1927-1930 yillarda O'zbekiston Sovnarkomining maorif boshqarmasi qoshidagi «Ko'k ko'ylak» musiqali teatriga yengil hajviy yumor, kupletlar yozib berish uchun Hoji Abdulaziz Abdurasulov va H. Hamidova (Hoji tam-tam) hamda shoir Vodud Mahmudov jalb qilinadi. Ular tomonidan «Fabrikaning yo'lidan», «Duhobadan to'n tikdim, chakkasiga gul bitdim», «Halima ko'ylak kiyadi», «G'o'zapoyaning guli», «Ako chekmang nosvoyni», «Jamalagi tillo qizgina» kabi

o'nlab hazil qo'shiqlar yaratildi. 1930-1932 yillarda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning «Iroq», «Qashqarcha Iroq», «Ufori iroq», «Gulyor», «Orazi gulyor», «Arzimni aytay» kabi 20 ta ashulalari Butunittifoq gramplastinka zavodi tomonidan yozib olinadi. Ularning har biri 650 ming donada chiqarilgan. 1933 yilda Moskva Gramplastinka zavodi «Qashqarcha ushshoq», «Ufori buzruk» ashulalarini yozib olib, 50 ming donadan chiqaradi. 1933 yilning 19-24 fevralida Toshkentda O'zbekiston san'at xodimlarining Birinchi dekadasi (haftaligi) bo'lib o'tadi. Sverdlov nomidagi rus opera va balet teatri binosida xonanda va sozandalarning chiqishlari boshlanadi. Birinchi bo'lib, Hoji Abdulaziz Abdurasulov hay'at hukmiga o'zining Navoiy g'azali bilan aytiladigan «Navo» maqomidan «Qahqarchai ushshoq» qo'shig'ini havola qiladi. Dekadaning yopilishi kuni 29-fevralda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hamda Halim Ibodovga «O'zbekiston xalq artisti» degan faxriy unvon beriladi. 1935 yilning 15 dekabrda Toshkentda Samarqand yozuvchilari uyushmasining raisi Sadridin Ayniy ijodiga o'ttiz yil to'lishi munosabati bilan tantanali, adabiy-badiiy kecha o'tkaziladi. Bu tantanaga Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Sh. Soxibov, Sh. Bobokalonov bilan birga qator san'atkorlar taklif qilinadi. Tantananing ikkinchi kuni Moskva grammofon plastinkalar tresti ko'chma brigadasi Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan «Gulizorim», «Bozurgoniy», «Beboqcha» va «Taronai ushshoq» qo'shiqlarini yozib oladi<sup>21</sup>.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov shogirdlari bilan o'n yettinchi dekabr kechasi Toshkentdan Samarqandga poyezdda qaytadi. O'sha yili qish qattiq bo'lgan ekanmi, Hoji Abdulaziz Abdurasulov qattiq shamollab qoladi. Oradan hech vaqt o'tmay, 1935 yildan 1936 yilga o'tar kechasi buyuk san'atkor hayotdan ko'z yumadi. Shoir Maqsud Shayxzoda S. Ayniy tantanalarida xonish qilgan ulug' hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulov vafoti munosabati bilan shunday yozgan edi:

U nozik lablarda qatralangan – un  
Nega eshitilmas bo'libdi bugun?

---

<sup>21</sup> «Pravda Vostoka» 1935. 15. 12-c.)

U zavqli nidolar, ohangli husn  
Balq – ila so'nibdi, so'nibdi bugun...  
Bu oqshom ko'rinmas oriq qomati,  
Kallasin chayqab-da aytmas "Dugoh"ni,  
Ovozning qanotli parilarini  
Ko'ray deb hayolda yummas nigohni.

Tojikiston milliy professional musiqa san'atining asoschilaridan biri kompozitor Z. Shahidiy, Hoji Abdulaziz Abdurasulov haqidagi maqolasida yozgan. «Har bitta samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulovning nomini yaxshi bilar, u bilan uchrashishni o'zlari uchun katta baxt -deb hisoblar edilar... men ham u zotni bir bor ko'rishni orzu qilardim. Esimda, bir kuni, 1925 yilning aprelida musiqa maktabida o'qiydigan jo'ralarimhovliqib uyimizga kelishdi. Mahallamizga Hoji Abdulaziz Abdurasulov kelarmish! Soat kech beshta kam sakkiz edi. Apil-tapil kiyinib mahalla choyxonasiga (Sharq mahallasidagi "Sharq" klubi) yugurdik... ikki ot qo'shilgan "Proletka-faeton"dan uchta sozanda qurshovida Hoji Abdulaziz Abdurasulov tushdilar. Mehmonni kuzatib turganlar ta'zim qilib, u kishini choyxonaga boshladilar, orqalaridan shogirdlari Qori siroj, Qori Isoq, Qobilo kirib keldilar. Ustoz ozg'indan kelgan, orasta kiyingan o'rtabo'yli chol edi... hofiz bir yoniga tanbur, bir yoniga dutorini qo'yib (avval birma-bir simlarni tortib), so'ngra mezbonlarga qarab tabassum bilan hol-ahvol so'radi. Dutorga ohista qo'l urdi. O'ynoqi, jilvagar yengil bir ohang hammaning diqqatini o'ziga tortdi, Qori Siroj barmog'iga kumush noxun kiyib tanburga qo'l urdi. Qobil doirabozning uzun qo'llaridagi doiradan o'ynoqi usul (ritm) jo'r bo'la boshladi. Sehrli nay (Qori Isoq), Tanbur, doira ohanglarini dutor boshqarib boradi. Go'yo sozlardan tarqalgan dilrabo, jilvagar ohanglar sehrli afsonalarga o'xshardi. Nihoyatda, Hofiz dastlab Zebuniso g'azali bilan "Ushshoq"ni, ortidan (Navoiy g'azali bilan) «Gulizorim», so'ngra «Sunbula»ni kuyladilar... bu ashulalar shu qadar tiniq, orombaxsh, shu qadar go'zal ediki hofizning cheksiz diapazonida jaranglayotgan Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Furqat g'azallari barchani hayratga

soldari. lirik tenorga ega bo'lgan Hoji Abdulaziz Abdurasulovning kuylash mahorati, ijrochilik texnikasi, dutor va tanburda bajariladigan musiqaviy impovizatsiyalar yoki bir ohangdan ikkinchi ohangga o'tishidagi o'ynoqi musiqani bironta sozandada ko'rmagan edim... bu kecha Hoji Abdulaziz Abdurasulovga bo'lgan hurmatim yanada oshdi» deb ta'kidlagan edi.

Abdulaziz Abdurasulov 1930 yilning 1 yanvarida 78 yoshida nafaqaga chiqadi. Lekin pedagogik faoliyatini Eski shahardagi «O'qituvchilar uyi»da davom ettiradi. U zot bilan birga qo'shnaychi A. Umrzoqov, Sh. Sohibov, Abduqodir Ismoilov, Qodir Avliyo kechki «Sozandalik va xonandalik» kursida 20 dan ortiq iste'dodli yoshlarga tanbur, dutor, nay, qo'shnay kabi milliy sozlardan hamda an'anaviy xonandalikdan dars beradilar. Sh. Akramov nay chalishning turli usullarini Qodir Avliyodan, so'ngra 1931 yildan boshlab «O'qituvchilar uyi»da Hoji Abdulaziz Abdurasulov va uning shogirdi Qori Siroj Yusupovdan dutor chalish, ashula aytish yo'llarini o'rganadi. Bu sinfda Habib Yusufiy, Rabbim Hamdamov, Nurmuhammad Sultonov ham bor edi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov shogirdlari orasida Sharifjon Akramov birinchilardan bo'lib, dutorda ijro etgan «Vah-vaha turam», «Ajam», «Ufor», nayda navo taratib ijro etgan «Iroq», «Ajam» kuylariga katta baho bergan. Ustoz uni Qori Siroj Yusupov bilan birga «imtihon»dan o'tkazadi. Sharifjon ilk bor ustoz oldida «Halima» (musiqali drama)dan Ne'matning «Sayra bulbul» deb nomlangan ariyasini (jo'rnavoz Q. Yusupov) aytib beradi. U bir yillik kechki kursda dutor (Hoji Abdulaziz Abdurasulov sinfida) va xonandalik (Q. Yusupov sinfida) dan bilim oladi. U o'zidan bir yosh katta bo'lgan D. Zokirov bilan birgalikda bo'sh vaqtlarida mashq qiladi, teatrning deyarli doimiy tomoshabini edi. 1934 yilining boshidan T. Sodiqov ularni ansamblga ishga qabul qiladi. O'sha yilda «Navro'z» bayramiga faol qatnashgan 30 dan ortiq sozanda, xonandalar qatori «hukumat» ziyofatiga taklif qilgan.

Sh.Akramovga nazari tushgan ustoz Hoji Abdulaziz Abdurasulov uni keyinchalik to'y-ma'rakalarga o'zi bilan olib borgan, sozandaligiga xonandaligiga, garchand qattiq tanbehlar bergan bo'lsada, hamisha o'zidek kamtarin, san'atni

hurmat qilishga da'vat etgan. U kishining talabchanligi, qattiqqo'lligi yaxshi ma'nodagi haqiqat edi.

Hofizning kenja shogirdi Sharifjon Akramovbutun ijodiy faoliyatida ustoz merosini avaylab-asrab kuylab keldi, nihoyat bu durdonalarni o'z shogirdlari Najmiddin Axrorov, Muhiddin Hojiyev, Xurram Mavlonov, Obloqul Xudoyqulov, Benyamin Taxalov, Asliddin Shamsiyev, Amriddin Shamsiyev, Istam Ne'matov, Karim Burxonov, Hojiqurbon Xolov, Abdurashid Ergashev, Ravshan Hamraqulov, Xiroj Jo'rayev, Ilhom Javdatov, Shavkat Gavriyelov, Ismoil Jobirov, Farrux Baqozoda, Zuhra Mirzayeva, Akmal Mirzayev, Edik Zavulunov, O'ktam To'xtayev kabi sozanda, xonandalrga beminnat o'rgatdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'zbekistondagina emas, hatto Tojikistonda ham Sharifjon Akramovni Hoji Abdulaziz Abdurasulovning kenja shogirdi, davomchisi deb, atar edilar. Butun esa ustoz Sh. Akramovning shogirdlari minnatdorchilik bilan ustozidan qolgan mumtoz «Shashmaqom» ijrochiligi bilan yosh avlodni tarbiyalamoqda.

Demak, Hoji bobomiz, u zotning shogirdlari Sh. Akramovdan qolgan bebaho musiqa, ashulachilik san'ati hech qachon o'lmaydi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulovning muborak nomlari 1969 yilda Samarqand san'at bilim yurti (hozirgi san'at kolleji)ga berilgan, "Ko'kmachit" ko'chasi ham ustozning nomlari bilan ataladi.

Samarqand dunyoga ko'plab olimu fozil kishilarni, davlat arboblarni, san'atkorlarni etishtirib bergan mo'tabar dargoh, oltin beshikdir. Mustaqillik nasimi ko'ksimizga tegib biz o'zimizni, o'zligimizni anglayapmiz, jaxon bizni qaytadan tanimoqda. Qadimiy urf-odatlarimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, ularni avaylab-asrab, avlodlarga etkazish borasidaulug'vor ishlar qilinmoqda.

Samarqandda yashab ijod etgan mashhur hofiz va sozanda, buyuk bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovning merosi ham biryoqlamalikdan xoli ravishda qaytadan o'rganilmog'i, xolis baholanib, nomi tarixiy xizmatlariga munosib darajada hurmatlanib, ardoqlanishi lozim.

Samarqand viloyat hokimining “Hoji Abdulaziz Abdurasulov tavalludining 140 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori<sup>22</sup> qabul qilishi mana shu ma’naviy burchimizni bir darajada uddalashga zamin hozirlaydi.

### **Birinchi bob bo‘yicha xulosa**

---

<sup>22</sup> Шарипов А. Хофиз юрган йўлларда. Самарканд. “Зарафшон”, 1996. 42-б.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov xonanda, sozanda, bastakor, O'zbekiston xalq artisti. Ishning birinchi bobida Hoji Abdulaziz murakkab ashulla yo'llarini o'z ovozigacha moslab, ijodiy yondoshgan holda o'zbek va tojik tillarida mahorat bilan aytganligi, uning hayoti va ijodi namunalarining yaratilish tarixi, uning «Guluzorim»ga Zebo pari, «Beboqcha» va «Ushshoq» yo'llariga Namudi Uzzol «Abdurahmonbegi»ga Namudi Navo avjlarini bog'lab, ularning ta'sirchanlik va yoqimlilik kuchini ortirgan xofiz ekanlini nanariy jihatdan o'rganilib asoslangan.

Uning «Ushshoq» shu tufayli ham «Ushshoqi Hoji» va «Samarqand Ushshog'i» nomlari bilan mashhur bo'lganligi, bastakor yaratgan «Gullar bog'i» ashullasi hozir ham xalqqa manzurligi va bu asarlarining tarbiyaviy jihatlari yoritilgan.

Bundan tashqari Xonanda repertuarida 200 dan ortiq halq ashullalari va maqom yo'llari bo'lib, ular ichida mumtoz musiqa asarlari asosiy o'rin tutgan. Jumladan, «Ushshoq» uning «Rosti Panjgoh», «Iroq» va «Navo» maqomlari yo'li, «Abdurahmonbegi -1», uning ufari, «Nasrullovi», «Iroq»ning qashg'archasi va ufari, «Gulyor», «Orazi Gulyor», «Ufar», «Arzimni aytay», «Qurbon o'lam» va boshqa ko'plab kuy va ashulla yo'llari alohida ajralib turadi. Ularni Hoji Abdulaziz SHarq mumtoz shoirlari Hofiz, Navoiy, Fizuliy, Zebuniso, Amiriy, Fazliy kabilarning g'azallari bilan aytgan. Hoji Abdulaziz mohir sozanda sifatida ham tanilgan bo'lib, maqom yo'llarini tanbur va dutorda ijro etgan. Ijrosidagi ko'pgina ashullalar 1909 yildan boshlab gramplastinka va fonograflarga yozib olingan. Samarqand musiqa kollejiga Hoji Abdulaziz nomi berilgan. 1997 yildan Samarqandda Hoji Abdulaziz nomidagi xonandalar tanlovi o'tkazilmoqda. U kishining vafotidan so'ng 2001 yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangani singari ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

## **II.BOB. YOSHLARGA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI**

## **2.1. Dars jarayonida o'quvchilarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatish amaliy shakllari**

Musiqqa qadim zamonlardan boshlab, kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim-tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo'llanilgan. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atning barcha turlariga, jumladan, musiqa san'atiga ham insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqur ta'sir qilib, ularda yuksak ma'naviy to'garakni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarashganlar va bunga katta e'tibor berganlar. Musiqa san'atining har bir janri shunday mavzular majmuini o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ma'naviy ruhi ifodalanadi.

Hozirgi paytda o'zbek xalq cholg'ularida ijroni o'rgatish ishida ilg'or milliy pedagogikasining asosiy prinsiplariga tayangan holda tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Respublikamizda xalq cholg'u ijrochiligini yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishda o'rgatish metodikasining sifatli darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar, pedagogik, didaktik, psixologik maqsadlarga asoslangan holda olib borilishi lozim. O'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarning kelgusi hayotiga, samarali mehnat faoliyatiga va turli kasb-hunar asoslarini puxta egallab borishlarida muhim ahamiyat va imkoniyati kattadir.

Kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiyaviy tadbirlar deganda qo'shimcha ta'lim-tarbiya muassasalari, davlat, xususiy, ishlab chiqarish korxonalarini, mahalla jamoatchilik orasida o'quvchilar ishtirokida o'quv rejalari asosida bir necha fanlarga tayangan holda tashkil etilib, o'tkaziladigan ijtimoiy foydali mashg'ulotlar majmui nazarda tutiladi. Bunday o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning qulaylik tomonlaridan biri shundan iboratki, ajratilgan vaqtni, mashg'ulot o'tkaziladigan joyini, qatnashuvchilar sonini, maqsadi va vazifalarini belgilash, aksariyat hollarda o'quvchilar va o'qituvchilarning ihtiyoorida bo'ladi.

Dars mashg'ulotlarining tashkil etilishida esa, maqsadi va vazifalaridan tashqari, tuzilishi kasb-hunar kollejlari o'quv rejasiga, dars jadvaliga, kunlik o'qish

tartibiga qat'iy bo'ysunishi talab etiladi. O'tkaziladigan barcha o'quv-tarbiyaviy tadbirlar kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiyaviy jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, u o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mahsulli, mazmunli o'tkazishdan tashqari, ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dars mashg'ulotlari kasb-hunar kollejlari o'quv rejasi, dars jadvali, (belgilangan) ko'rsatilgan vaqti, dars xonasi kabilar belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tadqiqot ishimizni biz Samarqand san'at kollejining 3210602 "An'anaviy vokal artisti" kasbi bo'yicha taxsil olayotgan o'quvchilarga "Mutaxassislik fani"dan «Xalq qo'shiqlari, bastakorlar asarlaridan namunalar ijro qilish» mavzusi misolida keltiramiz.

### **Dars mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi**

#### **Ta'lim berish texnologiyasining modeli.**

| <b>Mashg'ulot vaqti 2-soat</b>   | <b>o'quvchilar soni: 20-30 gacha</b>  |
|--|---|
| <b>Mashg'ulot shakli</b>   | Xalq qo'shiqlari, bastakorlar asarlaridan namunalar ijro qilish.  |
| <b>Mashg'ulot rejasi</b>   | 1. Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va faoliyati.<br>2. Abdulaziz Abdurasulovning ilmiy-musiqiy ta'limoti.<br>3. Abdulaziz Abdurasulov musiqiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari.<br>4. Abdulaziz Abdurasulovning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarini hozirgi davrdagi ahamiyati.<br>5. Abdulaziz Abdurasulovning ijodi namunalari |
| <b>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</b> Mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish, Abdulaziz Abdurasulovning ijodi orqali o'quvchi-yoshlarda axloqiy fazilatlarni singdirish va hofiz ijodi namunalaridan ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish.. |   |
| <b>Pedagogik vazifalar</b>   | <b>O'quv faoliyati natijalari:</b>  |

|  |   |
|--|---|
| 1. Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodiga oid manbalarni o‘rganish.<br>2. Abdulaziz Abdurasulovning ilmiy musiqiy ta’limotiga oid ma’lumotlarni o‘rganish.<br>3. Abdulaziz Abdurasulovning musiqiy merosi va ta’limiy-axloqiy qarashlarini konspektlashtirish.<br>4. Abdulaziz Abdurasulovning asarlaridagi axloqiy fazilatlarini shakllantirishga oid qarashlarini xozirgi davrdagi ahamiyatini ko‘rsatish.<br>5. Abdulaziz Abdurasulovning ijodi namunalari ijro etish. | 1. Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodiga oid manbalarni o‘rganib taxlil qiladi.<br>2. Abdulaziz Abdurasulovning ilmiy musiqiy ta’limotiga oid ma’lumotga ega bo‘ladi.<br>3. Abdulaziz Abdurasulovning musiqiy merosi va ta’limiy-axloqiy qarashlari haqida nazariy bilimga ega bo‘ladi.<br>4. Abdulaziz Abdurasulovning asarlaridagi axloqiy fazilatlar haqida ilmiy ma’lumotga ega bo‘ladi va xozirgi davrdagi ta’lim-tarbiya jarayoniga taqqoslaydi.<br>5. Abdulaziz Abdurasulovning ijodidagi asarlarini ijro etishadi |
| <b>Ta’lim berish usuli</b>   | Namuna, suxbat, tezkor – so‘rov, “Klaster “Birgalikda o‘qiymiz”, amaliy ijro usuli.   |
| <b>Ta’lim berish shakllari</b>   | Guruxli, individual ishlash   |
| <b>Ta’lim berish vositalari</b>  | O‘quv qo‘llanma, proektor, tanbur, dutor  |
| <b>Ta’lim berish sharoiti</b>  | Texnik ta’minlangan, guruxlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya.   |
| <b>Monitoring va baholash</b>  | Og‘zaki nazorat, savol – javob, amaliy ijro.  |

Darsning tashkiliy qismi tashkil etilgandan so‘ng o‘quvchilarga darsning maqsadini qisqa mazmunda tushuntirilib xofiz ijodidagi asarlar va ularning tarbiyaviy jihatlari yoritish yo‘lga qo‘yiladi.

O‘quvchilarga “GADOY” qanday yaratilgan? -deb quyidagicha tushuntirilib boriladi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijod etgan har bir kuy va qo‘shiqning o‘ziga xos yaratilish tarixi bor. Ana shulardan biri «Gadoyi» kuyidir. Hazin, yurakni larzaga keltiradigan bu kuy nomidan ham ko‘rinib turibdiki, muhabbat otashida yongan, yor vasliga yetish orzusida ishq gadosiga aylangan oshiq ruhiy kechinmalarini sirli soz nolalari orqali bayon qiladi. Ishq deya vatangado bo‘lishga, o‘zga yurtlarda xor-zor kezishga mahkum inson gavdalanadi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1891-1892 yillarda ilk marta haj safariga borib qaytgandi. Oradan 16 yil o'tib, yana hofizda xorijiy mamlakatlarga, haj safariga borish niyati tug'iladi. 1907 yulning oxirlarida bir necha o'ziga to'q boylar, savdogarlar haj safariga boorish uchun tayyorgarlik ko'radilar<sup>23</sup>. Ular o'zlari bilan fors-arab tilini mukammal biladigan kishini hamroh qilib olmoqchi bo'ladilar. Bunday dilkash hamroh Hoji Abdulaziz Abdurasulov edi. U fors, arab tillarini mukammal bilishi bilan birga dilrabo qo'shiqlari bilan uzoq yo'lni qisqartirishi ham mumkin edi. Ular darrov hofizga anchagina miqdorda pul yig'ib beradilar. Abdulaziz bu pullarga ro'zg'or uchun kerakli oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar sotib oladi. Qolgan qismini xotining qo'lga tutqazadi. Uning safar xaltasida kitob, daftar, qalam va dutordan bo'lak narsasi yo'q edi.

Shunday qilib, qavm-qarindoshlari, yor-birodarlari bilan xayrlashib safarga o'tlanadilar. Katta maqsadlarni ko'zlagan karvon yo'lga tushadi. Qancha-qancha yo'llarni bosib, jazirama, suvsiz cho'llarni kezib, uzun va og'ir yo'l mashqqatlarini tortib, nihoyat payg'ambarimiz vatani Makkaga beshikast, sog'-omon yetib keladilr. Albatta, uzun yo'lni Abdulazizning dilrabo, maftunkor qo'shiqlari qisqartirgan bo'lsa, ajabmas.

Abdulaziz hajga kelgan lak-lak odamlarni ko'rib, ular qarshisida lol turib qoldi. Ayniqsa, matolardan tikilgan chodirlar uning hayratini oshiradi. U odamlar oqimi bilan Makkatillo tomon boradi. Bu yerda musulmonchilik farzlarini oxiriga yetkazib, yana «Hoji» nomini olgan Abdulaziz ko'pgina vatandoshlari iltimosiga ko'ra bir oz muddat shu joylarda qoladi. U kechalari do'stlar davrasida bo'lib, ularga qo'shiq kuylab, dillarini shod etsa, kunduzlari shaharning diqqatiga sazovor joylarini tomosha qilib ko'ngil yozardi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov shahar va bozorlarni kezar ekan, nogahonda vayrona devor tagida bir gadoni ko'rib qoldi. Gado juda yupun kiyingan, soqollari o'sib ketgan, qadimiy ud asbobida allaqanday dilgir kuyni berilib chalayotgandi. Ajablanarlisi shundaki, gado asbobni chalar ekan, pardalar va torlarga qaramasdi. Gado jazirama quyosh nuridan qorayib ketgan, oriqlik va uzun-uzun barmoqlarini

---

<sup>23</sup> Ғофуров Олимжон Хуш наво истрв кўнгил. Т.: “Наврўз”, 2013 йил, 116-б.

pardalar ustida mohirlik bilan yugurtirib, yurakni o'rtaydigan kuyni ijro etar, lekin atrofidagilar unga parvo qilmay o'tib ketishardi. Abdulaziz qadamini sekinlatib gado oldiga keldi. Uning oldida turgan qutichaga bir necha tanga tashladi. Sehrli kuy og'ushida qolgan Hoji Abdulaziz beihtiyor "Gado" ro'parasida o'tirib qoldi. Sirli torlardan taraladigan ajoyib kuy uni go'yo o'ziga band qilib olgandi. U kuyni oxiriga qadar o'rnidan qo'zg'almay tingladi, kuy nihoyasiga yetdi. Gado qo'lidagi asbobni devorga suyab qo'yib, nafasini rostlamoqchi bo'ldi. Abdulaziz tilanchining qorayib ketgan oriq yuziga razm soldi. Gadoning ko'zlari nursiz va harakatsiz – ojiz edi. Unda shu kuyni o'rganib olish ishtiyoqi uyg'ondi. Shuning uchun qutichaga yana bir necha tanga tashladida gadodan boyagi kuyni yana chalib berishini so'radi.

Gado bir nuqtaga tik qaragan holda sozini qo'ygan joyidan olib, yana chala boshladi. Uning barmoqlari pardalar ustida chaqqon harakatlanar, nozik torlardan esa qalbni to'lqinlantiruvchi ohang taralib, yurakning qat-qatiga larza solardi. Hoji Abdulaziz gadoning iste'dodiga, yuksak mahoratiga qoyil qoladi. Kuy uni diqqat bilan tinglagan Hoji Abdulaziz yuragiga muhrlanib qolgandi. Chunki, xotirasi kuchli va o'tkir zehni Abdulaziz ikkinchi eshitishda kuyni yodlab oladi. Kuy tingach, gadoga minnatdorchilik izhor qilib, yana yo'lida davom etadi. Shahar ko'chalarini tomosha qilar ekan, gadodan tinglagan kuyini xirgoyi qilib boraveradi.

U gavjum ko'chalarni hunarmandlar do'konlarini, oziq-ovqat rastalarini tomosha qilar, shahar atrofidagi qishloqlarni kezar ekan, sarson-sargardon sozanda ashulachilar ijro etgan dardli kuy va qo'shiqlarni tinglaydi. Ularni o'tkir xotirasiga joylab oladi.

Devori Ko'ndalang qishloqda yashovchi 83 yoshli sozanda Baqo Kamolovning Hoji Abdulazizning shogirdi Qori Sirojdan eshitganiga muvofiq Hojibobo Jazoir mamlakat bo'ylab safar qilar ekan. Bir kuni jazoirlik cho'ponning tepalikdagi o'tloqzorda o'tirib nay chalayotganini ko'rgan. Hojibobo cho'pondan bir nechta kuylarni eshitgan. Keyinchalik ana shu eshitgan kuylari asosida o'zbek tinglovchilariga moslashtirib "Jazoir" nomli kuyni bunyod etadi.

Hoji Abdulaziz o`zining sayohatlari asnosida Eron, Hindiston, Afg`oniston, Turkiya, Arabiston, Afrika va boshqa sharq mamlakatlarida bo`ldi. U yerdagi kishilar hayoti, ularning marosimlari, musiqa va qo`shiqlari, she`riyati bilan yaqindan tanishdi. Albatta, ularning san`atiga katta ilhom oladi, o`zining musiqaviy fikratini kengaytirib boradi.

Shunday qilib Abdulaziz o`zining salkam ikki yillik sayohatidan so`ng ona Vatani - Samarqandga "Hoji" nomiga musharraf bo`lgan holda qaytadi. Oradan bir kun o`tkazib, Registon maydonida katta dasturda tuzilgan bazmini muxlislariga namoyish etadi. Bunda u milliy qo`shiq-maqomlar bilan birga "Gadoyi", "Misriy", "Jazoir" nomli kuylarni ham ijro etadi. Musiqa shinavandalari "Gadoyi" kuyi ijro etilganda ko`z yoshlarini to`xtatolmaydilar. Chunki bu kuy yangraganda ko`z oldilariga och-yalang`och, bir burda nonga zor, beqiyos san`ati bilan ko`chada tilanchilik qilib o`tirgan misrlik ojiz kishi gavdalanardi.

1908 yilning o`rtalarida O`rta Osiyo hofizlarining ovozi gramplastinkaga yozib olish uchun "Pishushiy Amur" shirkatining xodimlari Samarqandga tashrif buyurishadi. Albatta, Hoji Abdulazizning ismi birinchilardan yozilgan edi.

Hoji Abdulaziz ijrosidagi "Chapandozi navo", "Nasrullovi", "Mustahzod", "iroq", "Abdurahmonbegi", "Beboqcha", "Ushshoqi Samarqand", "Chapandozi Gulyor", "Do`st Xudoyim" kabi mumtoz qo`shiqlarini yozib oladi. Qisqa vaqt ichida bu qo`shiqlar plastinkalarga naqshlanadi.

«Gadoyi» kuyini 1930 yilda musiqashunos N. Mironov notaga tushiradi<sup>24</sup>. Bu kuy bir necha marta radio va televideniya qoshidagi xalq cholg`u asboblari orkestri ijrosida ijro etildi va plastinkaga yozib olindi. «Gadoyi» nafaqat o`zbek xalqining, balki boshqa xorijiy mamalakatlar musiqa shinavandalarining ham dil mulkiga aylandi.

### **O`quvchilarga «Gulizorim» qo`shig`i o`rgatsh.**

Har qanday bilim sohasining taraqqiyot darajasi ko`p jihatdan uning o`tmish tarixi-yu tajribasi bilan o`lchanadi. Bu, atniqsa, milliy maktab va uning nazariy-amaliy kompassi bo`lmish milliy pedagogika fani taraqqiyoti uchun xosdir.

---

<sup>24</sup> Гофуров Олимжон Хуш наво иствр кўнгил. Т.: "Наврўз", 2013 йил, 118-б.

Madaniy meros milliy pedagogikaning jon va qon tomiri hamda uning kelajakdagi rivojlanish yo'lini yorituvchi o'chmas mash'aldir. Chunki, o'tmish tajribalariga tayanmasdan turib kelajak avlodni yuksak axloqli, madaniyatli insoniy xislatlar egasi qilib tarbiyalash mushkul.

Xalqimizning istiqloliga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizni atroflicha o'rganish hamda undan bahramand bo'lish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy musiqa, raqs, qo'shiq va boshqa san'atlari bilan jahanga mashhurligi hech kimga sir emas. San'at ustalari, hofizlar, bastakoru sozandalar tomonidan yaratilib ijro etilgan san'at durdonalari mehnatkashlarni go'zallik, ezgulik ruhida tarbiyalashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Bu borada xalqimiz orasida mashhur bo'lgan atoqli san'atlarimizdan Mullo To'ychi Toshmuhammedov, Domla Hlim Ibodov, Levai Boboxonov, Sodirxon Hofiz, Hoji Abdulaziz Abdurasulov va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir<sup>25</sup>. Ayniqsa buyuk shashmaqom ilmining zukko bilimdoni, xalqimizning mashhur hofizi va mohir sozandasi Hoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodiy faoliyati mustahkam tayanch va muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ko'hna va serjilo musiqa merosimizni, musiqiy qomusimiz bo'lmish maqomlarni o'rganish borasida asosiy ensiklopediyasi rolini o'ynashi muqarrardir. Hojiboboning Sharq musiqa madaniyatida, ayniqsa shashmaqomning an'anaviy xalq musiqasidan professional darajada ko'tarilishida u kishi yaratgan ko'plab kuy-qo'shiqlar Sharq musiqasining betakror dahosi Borbad ijodidan qolishmaydi. «Gulizorim», «Samarqand ushshog'i», «Gullar bog'i», «Talqinchai navo», «Gadoyi», «Jazoir», «Misriy» kabi kuy va qo'shiqlar Samarqandda bo'lib o'tgan xalqaro musiqashunoslarning I, II, III simpoziumlarida nafaqat o'zbek va tojik xalqlarining milliy mulki, balki yaqin Sharq xalqlarining ham musiqiy mulki deb tan olingani bejiz emas.

Darhaqiqat, buyuk ustoz Hoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodi ummondek chuqur, keng va bepoyondir. *O'quvchi yoshlarga hofiz yaratgan kuy va qo'shiqlarni o'rgatib borish ham qarz, ham farzdir.* Zero hukumatimizning

---

<sup>25</sup> Ғофуров Олимжон Хуш наво истрв кўнгил. Т.: “Наврўз”, 2013 йил, 122-123-б.

maqom san'atini yanada rivojlantirish, uni kelajak avlodga oqizmay-tomizmay o'rgatish borasida olib borayotgan ezgu ishlari va rejali tadbirlari buning yaqqol timsolidir. Ma'lumki, har yili tuman, shahar, viloyat va Respublika miqyosida yosh ijrochi o'quvchilarning «O'zbekiston qo'shiq bayrami», «Yagonasan, muqaddas Vatan!» ko'rik-tanlovini o'tkazish an'anaga aylanib qolgan. Ana shu maqsadda o'qituvchilariga buyuk hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulovning «Gulizorim» qo'shig'ini o'quvchi-yoshlarga o'rgatish borasidagi tajribamizni keltirmoqchimiz.

Kollej o'quvchilariga ustozning asarlarini o'rgatishdan oldin u kishining yoshlik chog'lari-yu, musiqaga bo'lgan havasi, kollejda olgan saboqlariyu, ustozlar davrasidagi suhbatlari, xalq orasida masghhur bo'lib tanilishi-yu, bastakorlik faoliyatining boshlanishi haqida ma'lum darajada ma'lumotlar berib boriladi. Dastlabki to'garak mashg'ulotlarida, ya'ni musiqiy merosimiz haqida suhbat-leksiya o'tkaziladi. Keyingi mashg'ulotda esa ustozning chet ellarga qilgan safarlari, Makkai Mukarramaga borib, Hoji bo'lganligi, u yerlardagi xalqlar musiqasi, madaniyati bilan tanishib, «Gadoyi», «Jazoir», «Misriy», «Qurbon o'lam» kabi kuy va qo'shiqlar yaratganligi haqida so'zlab beriladi. O'quvchi quruq so'z bilan qanoatlanib qolmaslik uchun o'qituvchi hofizning «Gadoyi», «Jazoir» yoki «Do'st Xudoyim» nomli kuy va qo'shiqlarni plastinka orqali o'quvchilarga eshittiradi, yoki o'zi ijro etib beradi.

«Do'sti xudoyim» ashulasini bor ovozda aytib, odamlarning katta qismini o'limdan asrab qolganlar. Buni eshitgan Bu qo'shiqqa ham bandlar oralig'i takrorlanib keladigan, hofizlar tomonidan qo'shib kuylangan munajat bor. Yani, har banddan so'ng «Ey do'st xudoyim, raxm ayla ilohim, ey do'sti xudoyim, mada qil ilohim» deb qo'shib kuylanadi. Navoiy g'azalining matni esa budir:

- *Ul xatmudur yo sabzai jannatmudur,*
- *Yo quyosh uzra yozilgan oyati raxmarmudur* .
- *Bu sensiz kuydurur jonimni bilmon yaxshi kim,*
- *Yuz tumug'ning o'timu, yo shulai furqatmudu.*
- *Eyki bersen lablarimdin hojating nedur begil*

- *Men susiz,ul chashmai hayvon demay hojatmudur*
- *Demaki ne erkin ul oyning quyoshga nisbati*
- *Bir biriga ikkisin o'xshatkuchi nisbatmudur*
- *Qaddini kurgach ham o'ldum,ham tirildim oldida*
- *Rost gar ber sen qiyomat be,aning qomatidur*
- *Gar Navoiy mehnati hijronda o'ldi ayb ema,*
- *Yuz tuman muxlik balo degil ayni mehnatmudur.*

Men o'zim o'quvchilarga o'zbek xalq musoqasi ustalari mavzuini o'tganimda, ularga eng avvalo shashmaqom va mumtoz musiqa, ularning tarixi haqida, shuningdek, mashhur hofizlarni tanishtirib boraman. Taniqli, el suygan hofizu sozandalarning suratlarini bolalarga ko'rsatganimda, ulning mumtoz musiqaga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi.

Xulosa qilib aytganda, "Gulzorim"ham, namunalari sifatida mukammal asarlar tarzda yashashga xaqlidir. Qolaversa, ularning har biriga xofiz alohida mano va mazmun yuklagan, davrning ruhiyatini, zamona talabini singdirgan.

Suhbat darsini o'tib bo'lganimdan so'ng, darsning musiqa tinglash qismida hofizning «Gulizorim» nomli qo'shig'ini rubob jo'rligida kuylab berdim (Ashulla notasi 5-ilovada). Qo'shiqni ijro etayotganimda shu narsani ilg'adimki, o'quvchilar asarni nihoyatda zavq bilan tinglasharkan. Xalq qo'shiqlari, maqomlarining mungli, mag'rur, jozibali ohanglari, inson qalbiga kuchli ta'sir etishi bilan birga, kishining shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Aynan shuning natijasi bo'lsa kerak, «Gulizorim» qo'shig'i o'quvchilarni o'ziga tez jalb etdi. Ular bu qo'shiqni o'rganish istaklari borligini bildirdilar. To'garak mashg'ulotlarida bolalarga qo'shiq matnini, imlo xatolarisiz ko'chirtirdim:

Do'stlarim, bir nozanin ishq bu hol etmish meni,  
 Zulfi savdosi alif qaddimni dol etmish meni,  
 Lola gul ruxsori hajr ashkimni ol etmish meni,  
 Bir pari paykar g'ami oshufta hol etmish meni,  
 Elga ahvoli demaktin gungu lol etmish meni.

Ishq etkurmish meningdek telbani bu ergaki,  
Teshilur ko'ksim malomat o'qidin har ergakim,  
Yo'q majolim bo'yla holimdin o'zingga dergakim,  
Men avoyini, ne tong ko'rguzsalar bir-birgakim,  
Egma qoshing fikri andog'im hilol etmish meni.

Goh majnun elga, goh men sog' ila teng bo'lmisham,  
Hasratingdin lola englig' dog' ila teng bo'lmisham  
Kim, xazon faslidagi yafrog' ila teng bo'lmisham,  
YOr kuyi ichrakim tufrog' ila teng bo'lmisham,  
Ishq g'avg'osi bu yanglig' poymol etmish meni<sup>26</sup>.

O'quvchilar ushbu daftarlariga ko'chirib olishgach, uni qiroat qilib o'qib chiqdik. Shundan so'ng ularning ovoz diapozonini aniqlab, ikki guruhga ajratdim. Keyin qo'shiqni nazariy tomondan tahlil qilib, bu asar uch chorak takt o'lchovida ijro etilishi, daromad qismi bilan bohlanib, «du nasr» - yarim avjga o'tishi, kulminatsion nuqta – katta avjga chiqishi, shundan so'ng daromadi Uzzol Sho'basi bilan tugallanishi haqida so'zlab berdim. Shuningdek, qo'shiq mag'zini tarannum etuvchi naqarot qismi yangi pog'onaga o'tish qismlarida ijro etilishini ham ta'kidlab o'tdim.

Shundan so'ng qo'shiqni ta'sirli, ravon qilib kuylay boshladim. O'quvchilar esa qo'shiq ta'sirida qolib, uni telik bilan o'zlashtirishga oshiqishdi. Ana shuning o'zi meni ruhn ko'tarib yubordim. O'quvchilarning ovozi tobga kelgach, qo'shiqning daromad qismini o'rgata boshladim. Shu asnoda naqorat qismini ham o'rgatdim. Qo'shiqni ovozni balandlatmay kuyladik. Ana shu tariqa ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi mashg'ulotda qo'shiqning «du nasr» - yarim avji, kulminatsion nuqta – katta avjni hamda daromadi Uzzol sho'basi bilan yakunlashni o'rgata bordim. Birinchi guruh xonandalari katta avjni ijro etayotganlarida ikkinchi

---

<sup>26</sup> Ғофуров Олимжон Хуш наво истар кўнгили. Т.: “Наврўз”, 2013 йил, 124-б.

guruh a'zolari qo'shiqqa qo'shilmay turdilar. Ular daromadi uzzol qismiga kelgan paytdagina jo'rovoqlik qilib, birinchi guruh xonandalariga qo'shilib kuyladilar. Naqorat qismi misralari ham navbatma-navbat ijro etildi.

Shunday qilib, «Gulizorim» qo'shig'i o'quvchi-yoshlarga yuqoridagi kabi o'rgatilib boriladi.

Endi savol tug'ilishi mumkin: o'quvchilar qanday qilib shashmaqom shaklidagi qo'shiq ohangini buncha tez o'zlashtirib, uni xotiralarriga saqlab kuylay boshladilar? Albatta, buyuk san'atkor Hoji Abdulaziz Abdurasulov iste'dodining xalqchilligidan, uning xalq dilidagi ohanglarni kashf qila bilganligi va an'anaviy ijrochilik usullari bilan uyg'unlashtira olganligidir.

Ilgari davrlarda ilmi musiqa ilmi aruz bilan qorishtirilgan holda o'rgatilar ekan. Bu to'g'ri ta'limotdir. Chunki, o'quvchi she'riyat nazariyasini bilmay turib, musiqa ilmini to'lasincha egallay olmaydi. Zero, musiqa fani ma'rifat bilan uzviy bog'liqdir.

Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali kasb–hunar kolleji o'quvchi-yoshlarini tarbiyalashda ijtimoiy–gumanitar fanlarning imkoniyatlari yetarli ekanligiga ishonch hosil qildik. Jumladan:

- ijtimoiy–gumanitar fanlardagi bob va mavzulari o'quvchilarda Abdulaziz Abdurasulov ijodini o'rganishga xizmat qiladi;
- kasb–hunar kolleji o'quvchilarida Abdulaziz Abdurasulov ijodini o'rganish va shakllantirishda ijtimoiy– gumanitar fanlarni o'qitish yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitilishiga e'tiborni qaratish lozim;
- kasb–hunar kolleji o'quvchilari bilan viloyat respublika miqyosidagi targ'ibot uchrashuvlarini muntazam yo'lga qo'yish kerak;
- auditoriya, kollej koridorlarida, hovlisida, o'quvchilar turar joylarida hofizning axloqiy, tarbiyaviy hikmatli so'zlar bilan bezatish lozim.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda kasb–hunar kolleji o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi o'z tarbiyaviy ta'sirini o'tkazadi. SHuning bilan birgalikda jamiyatimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

Darsda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonining quyidagi jihatlarini farqlash mumkin:

- 1) Darslarga haftasiga ko'p vaqt ajratilganligini;
- 2) O'quvchilarning darsga qiziqishlari yuqori darajadiligini;
- 3) O'qituvchilarning bilim saviyasi va malakasi ancha yuqoriligini (maxsus oliy o'quv yurtlarini tamomlagan mutaxassislar);
- 4) Har bir darsning aniq maqsadga yo'naltirilganligini;
- 5) Sinf xonalarida ko'rgazmali qurollarning etarliligi va darslarda ulardan unumli foydalanilishini;
- 6) Darslarda yangi texnologiyalardan foydalanilishini;
- 7) Har bir guruhda o'quvchilar soni o'ntadan oshmasligini. Aynan mana shu omillar o'qituvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ta'minlaydi.

## **2.2. Tarbiyaviy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi orqali tarbiyaviy ta’sir etish**

Darsdan tashqari vaqtlarda o‘qituvchilar yoki chetdan taklif qilinadigan mutaxassislar o‘quvchilar bilan turli-tuman ta’lim-tarbiya ishlarini olib boradilar. Bunday ishlar darsdan tashqari ishlar deb ataladi. O‘quvchilarning deyarli hammasi darsdan tashqari ishlarga jalb etiladi va undan o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishning muhim vositasi sifatida foydalaniladi.

Darsdan tashqari ishlar o‘zigaxos xususiyatlari bilan o‘qish mashg‘ulotlaridan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy ravishda tashkil qilinadi. O‘quvchilar o‘z qiziqish va layoqatlariga qarab, turli to‘garaklarga o‘z ixtiyorlari bilan yoziladilar, darsdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan ommaviy va individual ishlarga ham o‘z istaklari bilan qatnashadilar.

Darsdan tashqari ishlarning turlari va formalari xilma-xil hisoblanadi. Bunday ishlarning yana bir xususiyati shundaki, bu ishda o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari asosiy o‘rin tutadi. Mustaqil ishlarni asosan talabalarning o‘zlari tashkil qiladilar. Pedagoglar esa o‘quvchilarning mustaqilligiga suyangan holda umumiy rahbarlik qiladi. Darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlar dars jarayonida olib boriladigan o‘quv tarbiyaviy ishlarni mustahkamlaydi.

Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni olib borishda bir qator usullardan foydalanish mumkin. Jumladan:

A) Og‘zaki ish usullari. Bunga siyosiy axborotlar, majlislar, ma’ruzalar, kitobxonlar, konferensiyalar, uchrashuvlar.

B) Amaliy ish usullari. Sayohatlar, sport musobaqalari, olimpiada va konkurslar, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatlarida olib boriladigan ishlar, shanbalik, yakshanbaliklar o‘tkazish.

S) Ko‘rgazmali ish usullari. Muzeylarga, badiiy ijod ko‘rgazmalarga, mavzuli stentlar va boshqalar.

Sinfdan tashqari tashkil etiladigan musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, o‘quvchilarni, iloji boricha, ko‘prok ommaviy va to‘garak ishlariga jalb etib, ularni

dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o‘stirish, tabiatga, Ona Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirish orqali ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta’lim muassasalarida musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to‘garak ishlari olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikkita shakli mavjud;

1. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
2. Musiqa tarbiyasining to‘garak shakli deb yuritiladi.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o‘quvini tekshiruvdan o‘tkazmay, yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, «Qo‘shiq bayramlari», «Musiqa haftaligi», «O‘zbekiston Vatanim manim», «Ilhom chashmalari» ko‘rik tanlovlaridan; ijodiy uchrashuvlar, teatr va konsertlarga sayohat, «Alifbe» bayramlariga, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi.

Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashkil etib, amalga oshirish zarur, shundagina chinakam badiiy - musiqiy bayram ruhini aks ettirish lozim bo‘ladi.

Musiqa o‘qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma’muriyati tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqa o‘qituvchisi va ma’naviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, “Kamolot” etakchisi bilan hamkorlikda, o‘quvchilarning yoshiga, qiziqishiga, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarini hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o‘quvchilarning musiqiy o‘quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg‘ulotlarining har biri, aniq ishlab chiqilgan reja va dastur asosida amalga oshirilmog‘i darkor.

Bunda har bir mashg‘ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, tarbiyaviy imkoniyatlari, ishtirokchilar, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, ishtirokchilar va o‘quvchilarni jalb etiladi.

To‘garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o‘qituvchisining o‘zi, o‘quvchilarning xohishi, qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O‘qituvchi to‘garak ishlariga o‘quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohishi-istagi, qiziqishi, ovozigacha qarab tanlab oladi va turli xil to‘garaklar tuzadi.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlar asosida biz o'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodini tarbiyaviy imkoniyatlarini tarbiyaviy tadbir orqali orqali shakllantirishni maqsad qilib belgiladik.

Tadbir uchun faollar zali kecha o'tkazilishi uchun tayyorlanadi. Sahna to'riga Hoji Abdulaziz Abdurasulov sur'ati solingan plakat osib qo'yiladi (Surat 1- ilovada).

Sahna ozoda va toza, kecha tayor holga keltiriladi. Sahna chetidagi fortomianoda musiqa o'qituvchisi O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi musiqasini chala boshlashi bilan sahna pardasi sekin-asta ko'tarila boshlaydi va sahnaga tayinlangan boshlovchi kechani quyidagi so'zlar bilan ochib beradi:

-Assalomu alaykum, qalbi qaynoq, dehri daryo ustoz-murabbiylar, ilmga chanqoq, zehni o'tkar o'quvchilar va davramizning hurmatli ishtirokchilari. Mana O'zbekiston xalq artisti bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovni xotirlaydigan, u kishining ijodidan bahramand bo'ladigan kun.

Zero, shunday ekan har bir yosh avlodning qalbida, ongida san'atga hurmat, ajdodlarimiz qadriyatlariga extirom ko'rsatish va ular qoldirgan bebaho merosdan bahramand bo'lish, yoshlar ta'lim-tarbiyasida ularning o'gitidan foydalanish g'oyatda samarali ekanligi hayotning o'zi isbotlab turibdi. konsitusiyamizga mehr, e'tiqod, ishonch tuyg'ulari shakllantirilishi lozim. Bugungi ertaligimiz ham zahmatli mehnati natijasida milliy musiqami san'ati namoyondachisi Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodigi bag'ishlanadi.

Bugungi kechamiz dasturida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti, ijodi, yaratgan asarlari va ulardagi g'oyalari, xofiz mehnatining namunalaridan bahramand bo'lishga taklif etamiz.

Shundan so'ng so'z kollejning ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha direktor o'rinbosariga beriladi. Ular ham bu boradagi fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadi.

**Boshlovchi:** Hoji Abdulaziz 1852 yilda Samarqand shahrida tug'ildi. Abdulaziz Abdurasulov o'z ijodiy faoliyati bilan o'zbek va tojik musiqa madaniyatiga tengsiz hissa qo'shdi. Avvalo ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan klassik kuylarning to'la to'kis etib kelishida maqomlarga sayqal berishda, mashhur

sanatkorlarning xizmatlari benihoya katta bo'ldi. Ikkinchidan ustoz hofiz o'z hayoti davomida shunchalik ko'p musiqachi shogirdlar tarbiyalab yetishtirdiki, mana shuning o'zi ham uning nomini boqiy qiladi –deb so'zni navbatdagi kollej o'quvchisiga beradi

**O'quvchi:** Hoji Abdulaziz Abdurasulov xonanda, sozanda, bastakor, O'zbekiston xalq artisti 1932 yilda tug'ilgan. Tanbur ijrochiligi va SHashmaqomning cholg'u yo'llarini ustoz Hoji Raximberdidan, hofizlik san'ati sirlarini hamda Nasr sho'abalarini samarqandlik Borux hofiz, keyinchalik Ota Jaloldan o'rgangan.

1887-1888 va 1907-1908 yillarda Haj safarlarini qilib Eron, Arabiston, Hindiston, Afg'oniston xalqlari musiqa madaniyati, ijrochilik uslublari bilan tanishgan. O'z san'atini ham namoyish etgan. 1920 yillari konsert guruhlarida qatnashgan, musiqa to'garaklarini tashkil etgan. 1928-1931 yillarda Samarqand musiqa va xoreografiya institutida o'qituvchi bo'lan.

M.Ashrafiy, T.Sodiqov, YU.Rajabiy va R.Rajabiy, I.Ikromov, M.Burxonov, D.Zokirov, M.Leviev, N.Hasanov kabi san'atkorlar Hoji Abdulazizdan ta'lim olishgan.

Hoji Abdulaziz murakkab ashulla yo'llarini o'z ovozigacha moslab, ijodiy yondoshgan holda o'zbek va tojik tillarida mahorat bilan aytgan. U «Guluzorim»ga Zebo pari, «Beboqcha» va «Ushshoq» yo'llariga Namudi Uzzol «Abdurahmonbegi»ga Namudi Navo avjlarini bog'lab, ularning ta'sirchanlik va yoqimlilik kuchini ortirgan. «Ushshoq» shu tufayli ham «Ushshoqi Hoji» va «Samarqand Ushshog'i» nomlari bilan mashhur bo'lgan<sup>27</sup>. Bastakor yaratgan «Gullar bog'i» ashullasi hozir ham xalqqa manzur.

Xonanda repertuarida 200 dan ortiq halq ashullalari va maqom yo'llari bo'lib, ular ichida mumtoz musiqa asarlari asosiy o'rin tutgan. Jumladan, «Ushshoq» uning «Rosti Panjgoh», «Iroq» va «Navo» maqomlari yo'li, «Abdurahmonbegi -1», uning ufari, «Nasrullovi», «Iroq»ning qashg'archasi va ufari, «Gulyor», «Orazi Gulyor», «Ufar», «Arzimni aytay», «Qurbon o'lam» va

---

<sup>27</sup> Ахмедова М., Олимбоева К., «Ўзбек халқ созандалари» тўплами. Т.: 1959.

boshqa ko‘plab kuy va ashulla yo‘llari alohida ajralib turadi. Ularni Hoji Abdulaziz SHarq mumtoz shoirlari Hofiz, Navoiy, Fizuliy, Zebuniso, Amiriy, Fazliy kabilarning g‘azallari bilan aytgan. Hoji Abdulaziz mohir sozanda sifatida ham tanilgan bo‘lib, maqom yo‘llarini tanbur va dutorda ijro etgan. Ijrosidagi ko‘pgina ashullalar 1909 yildan boshlab gramplastinka va fonograflarga yozib oligan. Samarqand musiqa kollejiga Hoji Abdulaziz nomi berilgan. 1997 yildan Samarqandda Hoji Abdulaziz nomidagi xonandalar tanlovi o‘tkazilmoqda. U kishining vafotidan so‘ng 2001 yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan –deb anjuman ishtirokchilariga Hoji Abdulaziz haqida ma’lumot berdi.

**Boshlovchi:** Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi “Bozurgoniy” ashullasini Fazliy she’ri, X.A.Abdurasulov musikasi, Rasul Kori Mamadaliev yulidagi ijrosi uchun kollej o‘qituvchisi Abdullaev Parvizga berdi (asarning notasi 2-ilovada).

### **BOZURGONIY**

Manga kurguzub necha katla kima joningdan

YUzda xolu zulfi dutolaring,

YOshirub necha meni xastadan ( buyingdan-o),

Nadur, ey pari bu ibolaring,

Meni dardu xajr ila zor etib (aylanaman-o)

Etib uzgalarga davolaring,

Kila boshlading manga zulm kim, ( voy voy)

Sitam etdi jabru jafolaring,

Ki vafoga va’dalar aylabon (aylanaman-o)

Kani va’dalarga vafolaring

Agar oy charogini xar kishi

Desa orazingni(ya) misolidan

YAKin nomlagil kim yukolga ul (urgulaman-o)

Necha xub zisti maolidan

Menga yaxshirok kurinur vale (voy voy)

Gaming uzgalarni(e) visolidan,

Alamim yuzing xatu xolidan (aylanaman)  
Kuzu koshi nuktai dolidan ,  
Senga ishk tuxmatin aylabon (urgulaman-o)  
Mani chakti yuzi karolaring.

Necha kilmading sitamingni kam  
Bilibon gamimni ziyodin(yo)  
Meni rashk uti ila kuydurub  
Berib uzgalarni(ya) murodin( yo)  
Karam etmading ne uchun kurib (voy voy )  
Bu buzuk kungilni(ya) savobini,  
Bu ki xusn mulkini shoxisan (aylanaman)  
Eshit oshik axlini dodini,  
Ki firok siynasin chokidan (aylanaman-o)  
Senga arz etar fukarolaring.  
Meni matlabim seni maksading  
Naki bulsa ey buti nuktadon  
Meni kunlimu seni fikratingga( joningdan)  
Sadafu guvor kabi kil gumon

Senin yodingu mening xotirim ( voy–voy)  
Edi volavu guli gulsiton  
Dilu jonu Fazli notavon( aylanaman)  
Senga muntazir kuzi nigaron  
Xammadan kungulda muxabating ( aylanaman-o)  
Tunu kun tilimda duolaring  
Ox yoray urgulaman joningdan.

**Boshlovchi:** Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijrosida qator qo'shiqlar gramplastinkalarga, radio tasmalariga yozib olingan. Ustoz hofiz sakson yoshda ham 1933 yil fevral oyida bo'lgan O'zbekiston san'atkorlarini birinchi slyotida qo'shiq aytish baxtiga muyassar bo'lgan. Shu kuni hoji Abdulaziz Abdurasulovga «O'zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoni berildi. Ustozning tabarruk nomi

mustaqillik yillarida ham e'zozlandi. Prezidentimiz farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi. Samarqand shahridagi san'at kollejiga u kishining nomlari qo'yildi. Samarqandda uning nomida yosh xonandalarning Respublika ko'rik tanlovi o'tkazib kelinmoqda –deb sahnaga kollej o'quvchilari ishtirokaidagi “Beboqcha” ashulasini tinglashga taklif etdi (asarning notasi 3- ilovada).

### **Beboqcha**

Gulshani ruxsor uza ul chashmi ohularmidur,  
Jabri ko'pu mehri oz bebod badho'larmidur,  
Xuni novha qilg'uvchi ikki jafo jularmidur,  
Go'shayi abrularinda chashmi jodularmidur,  
Yoqsa kirmish yoyatir andoz hindularmidur.

Bog' aro nargiz nigohingni ishorat intizor,  
Yuz yoshurmush har kafi xok ichra har simin uzor,  
Bo'lg'usi har kimsaga bo'lsa nigohing etibor,  
Ochilan gullarmidur yer uzra har fasli bahor,  
Yo fano dashtila xok o'lg'on pariruylarmidur.

Dargahingda kimki bosh, ostina tosh qo'ymush yotur,  
Dema toshkim boshino sina quyosh qo'ymush yotur,  
Ikki ajdar durki bir ganch, uzra bosh quymush yotur  
Ikki zulfin bir birina bosh tutash qo'ymish yotur  
Yo musal sal orazing davrindagi suvlarmidur.

Barcha xublar ul pari xusningni ermish qoyili,  
Dambadam xurshedi mavh kuyida o'lmish soyili,  
Dudi ohin kim Amiriy husnini ermish qoyili,  
Senmisan andaq Fuzuliy bo'yla xublar moyili,  
Yo'qsa ishq ahli qamuq sendek balojo'larmidur.

**Boshlovchi:** Xoji Abdulaziz Abdurasulov O'zbekiston xalq hofizi, zabardast bastakor, mumtoz musiqa ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratishga

erishgan, musiqa merosimiz xazinasini 500 dan ortiq mumtoz uslubdagi ashulalar bilan boyitgan asrimizning ustoz san'atkorlaridandir.

Hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulovning Muxtor Ashrafiy, YUnus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Inomjon Ikromov, Mutavakkil Burhonov, Doni Zokirov, Manas Leviev ota-bola Nabi va Telman Hasanov, Qori Siroj YUsupov, SHarifjon Akromov singari is'tedodli shogirdlarga ustozlik qildi. SHogirdlari ham O'zbekistonda milliy musiqaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Bu ustozu shogirdlik an'analari hozirgi kunimizda ham davom ettib, ular safida Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Boboev, Rustam Abdullaev, Ravshan Hamroqulov kabi o'ta iste'dodli bastokorlar jonbozlik bilan ishlab kelmoqda –deb so'zni kollej o'qituvchisi Abdullaev Parvez ijrochiligida Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi, Fuzuliy g'azali "Qurbon o'lam" ashullasini ijro etish uchun berdi (asarning notasi 4-ilovada).

### **"Qurbon o'lam"**

Kel- kel ey moxiliko xusningta kurbon ulam

Xalkayi zul.fi parishoningga kurbon ulam

CHashmi maetu labi xandonintta kurbon ulam

Oftobi ruyi toboningta kurbon ulam

Kaddi shamshod xiromoningga kurbon ulam

Ikki koshing kalamu ikki kuzing chashmayi nur

Bark urib oyinadek siynayi sofing kurinur

Ey sani dardu firoking mani jonimga xuzur

Yuk nazokat.ichinda sen kabi durdoniyi dur

Mann choki gariboningga kurbon ulam

Ikki kuzim ravshani sha'di shakar sha'mi jamol

Mani dilxastaga rakm ayla bu bir kungil nixol

Kilma kup jabru sitam kolmadi tobi majol

YO kelib boshimni kes krnimni tuk jonimni ol

Man sani xanjarp burronpngga kurbon ulam

Kullaring panjai xurshid beling murcha miyon

Kuylak ichra badaning sof erur obiravon

Raxim etib kel mani ogushima ey ofatijon

Kadu bastinga tasadduk bu **F u z u l i y** kilay jon

Mann sani nolayi afgoninga kurbon ulan.

**Boshlovchi:** so‘zga professor A.Ergashevni davraga taklif qildi.

Prof.A.Ergashev “Xoji Abdulaziz kuylagan baxt, odamiylik, zavq-shavq diniy falsafadan ham oziqlnadi. Bu mushtaraklikni uning qo‘shiqclariga, mulkiga aylanib qolgan g‘azallar- Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Ogahiy, Zebiniso, Fazliy, Furqat, Vola singarilarning ijodida diniy va dunyoviy tushunchalarning o‘zaro bog‘lanib ketgani bilan ham izohlash mumkinligini ta‘kidladi.

Hofiz ijro qilgan “Gulzorim” ning yangi davr qo‘shig‘i sifatida anchagina mukammal bir asardir. Oktyabr to‘ntarilishi bolsheviklar mafkurasi hukumronligi qadar Xoji Abdulaziz aynan shu musiqa avjlarida “Do‘sti xudoyim” qo‘shig‘ini kuylab kelgan. Dindorlarga va aqidalarga qarshi murosasi muhit shakllanayotgan pallada hofiz o‘nlab yillar davomida kuylagan sevimli qo‘shig‘i- “Do‘sti xudoyim” ohanglariga singdirilgan hayotbaxsh quvvatni boshqa “zamonaviyroq” qo‘shig‘i – “Guluzorim” avjlariga ko‘chirishga majbur bo‘ladi. Barcha mashg‘ulotlarni oson qiliuvchi Ollohga qaratilgan munajat uning ramziy timsoliga-gul yuzli yorga qaratiladi. “Guluzorim” ning har jihatdan mukammalligi sirlaridan biri ham shundadir.

“Do‘sti xudoyim” ham aslida Navoiyning bir g‘azali bilan aytilguchi qo‘shiq bo‘lgan. Ishqibozlar hofiz ijro etgan bu qo‘shiqni hozirgi kunda ham, zavq olishlari mumkin. Samarqandimizdagi Xoji Abdulaziz Abdurasulov nomi bilan ataluvchi sanat kollejimizda hofizning muzeyi tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda 1908-1911 yillarda Rigadagi “Gramafon” firmasi tomonidan hofiz ijrosida bevosita Samarqandda yozib olingan o‘nga yaqin plastinka ehtiyot qilib saqlanmoqda. Bunday plastinkalar boshqa joylarda va odamlarning qo‘llarida ham mavjudir -deb

ijozatlaringiz bilan Xoji Abdulaziz Abdurasulov  
Navoiy g'azali bilan ijro etgan "Guluzorim" ashullasini yozib olingan tasmadan  
ashullasini tinglasak (asarning notasi 5-ilovada).

### **Guluzorim**

Do'stlarim, bir nozanin ishq bu hol etmish meni,  
Zulf savdosin alif qaddimni dol etmish meni,  
Lola gul ruxsori hajr ashkimni ol etmish meni,  
Bir pari-paykar g'ami oshifta hol etmish meni,  
Elga ahvolim demakka gun gulol etmish meni.

Ishq yetkurmish meningdek telbani bu yerga kim,  
Teshilur ko'ksim malomat o'qidin ne yergakim,  
Yo'q majolim, o'yla holimdin o'zingga derga kim,  
Men havoyini ne tong ko'rgussalar bu yerga kim,  
Etma qoshi fikri andog'kim hilol etmish meni.

Goh majnun elga, goh men sog' ila teng o'lmisham,  
Hasratingdin lola yanglig' dog' ila teng o'lmisham,  
Kim, xazon faslidagi yaproq ilan teng o'lmisham,  
Yor kuyi ichrakim, tuprog' ilan teng o'lmisham,  
Ishq savdosin bu yanglig' poyimol etmish meni.

**Boshlovchi:** Hoji Abdulaizining izdoshlaridan yana biri Ravshan Hamroqulov Bu istedod sohibida maqom ijrochiligini usullarini juda nozik his qilish qobilyati bor. Qashqar rubobini Samarqandda bugungi kunda Hamroqulovdan o'ktazib chaladigan boshqa sozanda bo'lmasa kerak. Samarqand davlat dorulfunini musiqa qulliyotining xalq cholg'u asboblari kafedrasiga talabalarga cholg'uchilik mahoratini saboq berib kelayotgan R.Hamraqulovni jumhuriyatda ham yaxshi tanishadi. "Kuylang, yosh xonandalar", "Qo'shiq aytgan yetar murodga", "Marhabo, talantlar", "O'zbekiston kuylagay" telefestivallarining

g'oliblaridan biri sifatida u o'z ixlosmandlarini tezgina topib oldi –deb so'zni *O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*" Ravshan Hamroqulovga berdi.

**So'zga:** Ravshan Hamroqulov chiqib "Xoji Abdulaziz Abdurasulovning samarqanddagi shogirdlari Qori Siroj YUsupov, Gabriel Mulloqandovlar ham undan saboq olishdek baxtga musharraf bo'lgan insondir. Jo'raxo Nazarov Qo'qondan Samarqand tibbiyot oliygohiga o'qishga keldiyu, bu yerdagi ijrochilik maktabi tasiriga tushib, bir umrga qolib ketganligini aytib, Samarqand san'at maktabi asoschisi Abdulaziz Abdurasulov hayotidagi ta'sirli voqealarni o'quvchilarga aytib berdi.

**Boshlovchi:** Ijzatlaringiz bilan kollej o'quvchilari ijrosidagi Xoji Abdulaziz Abdurasulovning "Samarqand ushog'i" ashullasiga berdi (musiqa notasi 6-ilovada).

### SAMARQAND USHOQQI

Biyoki zulfi kaju chashmi surmaso injost  
Nigohi garmu adohoyi dilrabo injost  
Karashma tig' mijo xanjar nigoh olmos  
Shahodatar talabi dashti Karbalo injost  
Agar bihisht dihandat firebi kas naxuri  
Qadam zi maykada berun maneh ki jo injost  
Kitob xonayi olam varaq-varaq justam  
Xati tu diydamu guftamki "Muddao in jost"

Zakoti husni agar medihi baroyi rizo  
Biyoki Zebuniso ham chu man gado in jost.

**Boshlovchi:** bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganishning yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etish g'oyatda muxim. Mashhur xofiz tomonidan yaratilgan "Bebog'cha", "Gulzorim", "Bozurgoniy", "Samarkand Ushshog'i", "Ushshog'i Xoji", "Iroqi Xoji". "Qurbon o'lam", "Arzimni aytay",

"Mustahzod" "Chapandozi Navo", "Nasrulloyya", "Chapandozi Gulyor" kabi mumtoz qo'shiqlari kuy va qo'shiqqa tashna xalqimizning yuragidan joy olgan desak mubolag`a bo'lmaydi –deb kollej o'quvchilari ijrosidagi xofiz ijrosidagi "Beboqcha" ashullasiga berdi (ashulla notasi 7-ilovada).

### **Beboqcha**

Gulshani ruxsor uza ul chashmi ohularmidur,  
Jabri ko'pu mehri oz bebod badho'larmidur,  
Xuni novha qilg'uvchi ikki jafu jularmidur,  
Go'shayi abrularinda chashmi jodularmidur,  
Yoqsa kirmish yoyatir andoz hindularmidur.

Bog' aro nargiz nigohingni ishorat intizor,  
Yuz yoshurmush har kafi xok ichra har simin uzor,  
Bo'lg'usi har kimsaga bo'lsa nigohing etibor,  
Ochilan gullarmidur yer uzra har fasli bahor,  
Yo fano dashtila xok o'lg'on pariruylarmidur.

Dargahingda kimki bosh, ostina tosh qo'ymush yotur,  
Dema toshkim boshino sina quyosh qo'ymush yotur,  
Ikki ajdar durki bir ganch, uzra bosh quymush yotur  
Ikki zulfin bir birina bosh tutash qo'ymish yotur  
Yo musal sal orazing davrindagi suvlarmidur.

Barcha xublar ul pari xusningni ermish qoyili,  
Dambadam xurshedi mavh kuyida o'lmish soyili,  
Dudi ohin kim Amiriy husnini ermish qoyili,  
Senmisan andaq Fuzuliy bo'yla xublar moyili,  
Yo'qsa ishq ahli qamuq sendek balojo'larmidur.

**Boshlovchi:** Aziz tomoshabinlar Siz Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodiga bag'ishlangan tadbirni tinglab tomosha qildingiz. E'tiborlaringiz uchun katta

rahmat. Mana shu tadbirni tayyorlashda yordam bergalarga, barcha ustozlarga, kollej ma'muriyatiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Xayr, salomat bo'ling!

Shu bilan tadbir nihoyasiga yetadi.

YUqoridagi tarbiyaviy tadbir o'quvchi-yoshlarni ma'ngaviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga, ularni ijtimoiy tarbiyada adolat, to'g'rilik, halollik, saxiylik, vatanparvarlik kabi axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchi-yoshlar ongida milliy g'ururni tarkib toptirishga va mustaqil fikrlashga olib keladi. Natijada bolalar ana shu fikrlashga tayanib, Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi axloqiy fazilatlarni ijtimoiy hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma, malaka va odatlarni shakllantiradi.

Bastakor hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganishning yoshlar tarbiyasida ahamiyatini, tutgan o'rni, va uning samaradorligini yanada oshirish uchun:

-Kollejda o'quv jarayonida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodini sifatli tashkil etish uchun axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim hisoblanadi;

-Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o'rganishda ta'lim metodlarini tanlashda har bir dars vazifasidan kelib chiqib yondoshish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars oqilona tashkil etilishi, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi o'rganilib, ta'lim jarayonida faolligi mutassil ta'minlash;

-Hofiz ijodini o'quvchilarga kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochib berishda har bir uslubdan o'z o'rnida foydalanish.

-ta'lim oluvchilarni Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi namunalarni ijro etishda amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash;

-Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o'rganishda jixozlangan xona, Nota daftar, ruchka, qalam, o'chirg'ich, chizg'ich, eshituv va yozuv texnik vositalari, og'zaki, amaliy usullardan foydalanish;

-o'qituvchi darsning xususiyatidan kelib chiqib darsni o'zi ijodiy belgilashi va yangiliklar kiritishi maqsadga muvofiq;

-Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o'rganishda audio, video, kompyuter texnikasi va DVD kabi didaktik vositalardan keng va samarali foydalanish;

-Xoji Abdulaziz ijodini o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar yaratilishi hofiz ijodi va uning yoshlarga tarbiyaviy ta'siri yanada yaxshilanadi degan umiddamiz.

Samarqandda qo'shiqchilikning bu tabarruk jabhasida o'zini endi sinab ko'rayotgan, xali nomlari ko'pchilikka notanish istedodlar ham talaygina. Vaqti kelib Hoji boboning izdoshlari musiqa madaniyatiga qanday shaxsiy ulush qo'shganliklari, bu umidli istedodlarning xizmatlari ham albatta sarhisob qilinishiga ishonamiz.

Ayni paytda Hoji Abdulaziz aytgan qo'shiqlar minglab yuraklarga yana oynadek sado berishin ravshan.

Bastakor Hoji Abdulaziz maqom yo'llarini takomillashtirishga qo'shgan hissasi bilan manaviy madaniyatimiz tarixida mangu qoldi. Ham musiqaviy, ham ashulaviy ijroda etishqiyin bo'lgan cho'qqiga ko'tarilgan ustoz yana minglab sanatga ishufta qalblar uchun so'nmas mayoq rolini o'ynaydi. Uning sehrigar taronalar, dilgir savtlar, o'ynoqi, vazmin avjlar, dilbar usullar majmuasi bo'lgan yuzlab yetuk asarlari Samarqand maqom maktabining ko'rki kamoli, faxru iftixori bo'lib qolaveradi, o'zining olmosiy jilolari bilan asrlar osha ham dillarni rom etaveradi.

SHunday qilib, o'quvchi-yoshlarni ajdodlarimiz merosi asosida komil inson qilib shakllantirish, shuningdek, mamlakatni ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lmog'i lozim.

## **Ikkinchi bobi bo'yicha xulosa**

Ishning mazkur bobida o'quvchi-yoshlarga hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning shakl, metod va vositalari yoritilgan bo'lib bunda biz, dars jarayonida o'quvchilarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning amaliy shakl va metodlari yoritilgan.

Bunda Samarqand san'at kollejining 3210602 "An'anaviy vokal artisti" kasbi bo'yicha taxsil olayotgan o'quvchilar respondent etib tayinlandi va ularning "Mutaxassislik fani" laridan «Xalq qo'shiqlari, bastakorlar asarlaridan namunalar ijro qilish» mavzusida dars mashg'uloti orqali bastakor ijodining tarbiyaviy jihatlarini yoritishga e'tibor qaratildi.

O'quvchilarga bastakor asarlarini o'rgatishdan oldin u kishining yoshlik chog'lari-yu, musiqaga bo'lgan havasi, kollejda olgan saboqlariyu, ustozlar davrasidagi suhbatlari, xalq orasida mashhur bo'lib tanilishi-yu, bastakorlik faoliyatining boshlanishi haqida ma'lum darajada ma'lumotlar berib borish orqali o'akllantirildi.

Bastakor ijodiga bag'g'ishlangan tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi orqali tarbiyaviy ta'sir etish sinariysi ishlab chiqilib, sahna ko'rinishi orqali bajarildi. Bu tadbirning natijasi o'quvchilarda ijobiy taasurol qoldirdi.

### **III BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI**

#### **3.1. Pedagogik eksperiment boshida Hofiz ijodi orqali o'qituvchilarda axloqiy fazilatlarning shakllanganlik darajasini aniqlash**

Bizga ma'lumki, muayyan ilmiy-tadqiqot doirasida tashkil etilayotgan tajriba-sinov ishlarining puxta ishlab chiqilgan dastur asosida olib borilishi, bu boradagi nazariy g'oyalarning ilmiy jihatdan asoslanishiga, ularning haqiqiy bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Kollej o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hofiz ijodi orqali o'quvchilarda milliy hulq-odob qadriyatlarni singdirilishiga erishish hamda shu asosda ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Tajriba-sinov ishlari oldimizga quyidagi vazifalarning hal etilishini talab etdi:

1. Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali o'quvchilarda milliy axloqiy madaniyat haqida tasavvur hosil qilish;

2. Kollej o'quvchilarida hofiz ijodi orqali axloqiy madaniyatni to'laqonli shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. Sinfдан tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus metodikani sinovdan o'tkazish.

4. Mazkur maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtirish, matematik-statistik metod yordamida tahlildan o'tkazish.

Sinfдан tashqari ishlarda kollej o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi uslublar asosida o'tkazildi: so'rovnoma uslubi; suhbat

uslub; pedagogik kuzatuv uslubi; interfaol uslublar; pedagogik tajriba uslubi; matematik-statistika uslubi.

Tashkil etilgan tajriba sinov ishlari jarayonida o'quvchilar ishtirokidagi tadbirlarning mazmuni, mohiyati hamda yo'nalishidan kelib chiqqan holda ularga mos uslublardan foydalanishga harakat qilindi. Bahs munozara, erkin muloqotga asoslangan, o'quvchilarni fikrlashga undovchi tadbirlar samarali yakunlandi. Tadbirlarni o'tkazishda noan'anaviy (interfaol) metodlarning qo'llanilishi tajriba-sinov jarayoni ishtirokchisi bo'lgan o'quvchilar faoliyatini yanada faollashtirdi.

Ilmiy-tadqiqot muammosi doirasida tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Tajriba-sinov ishlarining o'tkazilishini ta'minlovchi tashkiliy tayyorgarlik bosqichi.
2. Tajriba-sinov ishlari uchun obyekt sifatida belgilangan o'quvchilar bilan ishlash, maxsus metodikani dastlabki sinovdan o'tkazish bosqichi.
3. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va tahlil etish bosqichi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida o'quvchilarda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining boshida o'quvchilarning hofiz ijodidagi ilgari surilgan milliy-axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

#### 1-jadval

**Tajriba boshida kollej o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi to'g'risida ma'lumot**

| № | O'quvchilarning Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi axloqiy fazilatlarning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilim va ko'nikmalardan xabardorlik | O'quvchilarning umumiy soni  |        |                              |        |
|---|--|------------------------------|--------|------------------------------|--------|
|   |  | Nazorat guruhi<br>$n_1 = 59$ |        | Tajriba guruhi<br>$n_2 = 60$ |        |
|   |  | Ijobiy                       | Salbiy | Ijobiy                       | Salbiy |
|   |  |                              |        |                              |        |

|           |  |    |    |    |    |
|-----------|--|----|----|----|----|
| <b>1</b>  | <b><i>Mehnatsevarlik</i></b>                                 | 21 | 38 | 22 | 38 |
| <b>2</b>  | <b><i>Insonparvarlik</i></b>                                 | 21 | 38 | 24 | 36 |
| <b>3</b>  | <b><i>Vatanparvarlik</i></b>                                 | 18 | 41 | 21 | 39 |
| <b>4</b>  | <b><i>Ota-ona, kattalarga hurmat</i></b>                     | 28 | 41 | 20 | 40 |
| <b>5</b>  | <b><i>Rostgo'ylik</i></b>                                    | 27 | 32 | 25 | 35 |
| <b>6</b>  | <b><i>Mardlik, tashabbuskorlik</i></b>                       | 18 | 41 | 19 | 41 |
| <b>7</b>  | <b><i>Poklik</i></b>   | 20 | 39 | 22 | 38 |
| <b>8</b>  | <b><i>Dinga e'tiqod</i></b>                                  | 18 | 41 | 20 | 40 |
| <b>9</b>  | <b><i>Adolatparvarlik</i></b>                                | 21 | 38 | 21 | 39 |
| <b>10</b> | <b><i>Jasurlik</i></b>                                       | 21 | 38 | 23 | 37 |
| <b>11</b> | <b><i>Ajdodlar va ular merosini chuqur hurmat qilish</i></b> | 22 | 37 | 24 | 36 |
| <b>12</b> | <b><i>Fidoiylik</i></b>                                      | 19 | 40 | 20 | 40 |
| <b>13</b> | <b><i>Milliy qadriyatlarga muhabbat</i></b>                  | 22 | 37 | 22 | 38 |

Kollej o'quvchilarining Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir axloqiy bilimlarning xabardorlik va shakllanganlik darajasini yuqoridagi jadvalda raqamlar orqali namoyon bo'lishi, uning past darajada ekanligini ko'rsatdi.

### **3.2. Pedagogik eksperiment yakunidagi tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili**

Kollej o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali tarbiyaviy ta'sir etib, ularda milliy axloqiy fazilatlarni shakllantirishning mazmuni, shakl va uslublari o'rta maxsus kasb hunar ta'limida amal qilinayotgan tarbiya tizimining bir qismidir. Mazkur tizimning samaradorligi pedagogik tadqiqotlar natijasida to'la sinovdan o'tkaziladi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi milliy pedagogikamizda ma'naviy tarbiya vositasi sifatida uning xazinasidagi asarlaridan saralab olingan namunalarda o'z isbotini topdi. O'quvchilarda hofiz ijodidagi axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda biz ana shu maqsadga erishish uchun mumkin qadar ko'proq tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan asarlarini tanlab oldik.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda Hoji Abdulaziz hayoti va ijodidagi estetik, badiiy tarbiya vositalari, asarlarida ilgari surilgan milliy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga rioya etish zarur: Hofiz ijodidagi ma'naviy va estetik tarbiya bo'yicha tarixiy-nazariy bilim va amaliy tajribalarini sinfdan tashqari ishlar jarayonida foydalanish; Hofiz ijodidagi milliy an'analarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish, tanlab olish jarayonida hofiz asarlaridagi axloqiy mazmunini alohida e'tiborga olish, asarni badiiy idrok qilish; ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayonida qatnashish, Hoji Abdulaziz ijodidan turli tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda shahar, viloyat, Respublika miqyosidagi ko'riklar, milliy musiqa va turli bayramlar, Mustaqillik kuni, turli sanalarga bag'ishlangan tadbirlarda milliy urf-odatlar, an'analarda keng foydalanish; sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarning estetik did, qiziqishlarini o'rganish; dars mashg'ulotlarida hofizning milliy tarbiyaga ijobiy ta'sir etuvchi psixologik sharoit vujudga keltirish, har bir tadbirni go'zallik qoidalari asosida rivojlantirish, puxta, chuqur tayyorgarlik bilan o'tkazish; o'quvchilar ishtirok etayotgan tadbirlarda, shoir va yozuvchilar,

madaniyat xodimlari, olimlar ishtirokidagi tadbirlarda iloji boricha hofiz ijodini namoyish qilishga ko'proq erishish va xok.

Pedagogik tajriba ishlari uchun maxsus tayyorlangan metodikani amaliyotda sinash natijasida o'quvchilar tomonidan Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali milliy-axloqiy fazilatlar mohiyatini anglash sezilarli darajada o'zgardi. Mazkur o'zgarish quyidagi jadvalda o'z aksini topdi.

## 2-jadval

### Kollej o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi (tajriba oxirida) haqida ma'lumot

| №  | O'quvchilarning Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi axloqiy fazilatlarining tarkibiy qismlariga doir nazariy bilim va ko'nikmalardan xabardorlik | O'quvchilarning umumiy soni           |        |                                       |        |
|----|---|---------------------------------------|--------|---------------------------------------|--------|
|    |   | Nazorat guruhi<br>n <sub>1</sub> = 59 |        | Tajriba guruhi<br>n <sub>2</sub> = 60 |        |
|    |   | Ijobiy                                | Salbiy | Ijobiy                                | Salbiy |
| 1  | <i>Mehnatsevarlik</i>   | 21                                    | 38     | 46                                    | 14     |
| 2  | <i>Insonparvarlik</i>   | 22                                    | 37     | 49                                    | 11     |
| 3  | <i>Vatanparvarlik</i>   | 19                                    | 40     | 47                                    | 13     |
| 4  | <i>Ota-ona, kattalarga hurmat</i>   | 28                                    | 41     | 51                                    | 9      |
| 5  | <i>Rostgo'ylik</i>  | 28                                    | 31     | 52                                    | 8      |
| 6  | <i>Mardlik, tashabbuskorlik</i>   | 19                                    | 40     | 45                                    | 15     |
| 7  | <i>Poklik</i>   | 21                                    | 38     | 47                                    | 13     |
| 8  | <i>Dinga e'tiqod</i>  | 18                                    | 41     | 49                                    | 11     |
| 9  | <i>Adolatparvarlik</i>  | 21                                    | 38     | 51                                    | 9      |
| 10 | <i>Jasurlik</i>   | 21                                    | 38     | 49                                    | 15     |
| 11 | <i>Ajdodlar va ular merosini chuqur hurmat qilish</i>   | 23                                    | 36     | 48                                    | 12     |
| 12 | <i>Fidoiylilik</i>  | 20                                    | 39     | 43                                    | 17     |
| 13 | <i>Milliy qadriyatlarga muhabbat</i>  | 22                                    | 37     | 46                                    | 14     |

Kollej o'quvchilarida hofiz ijodidagi milliy axloqiy sifatlar va ko'nikma, odatlarni, madaniyatni shakllantirish mazmunining to'liq o'rganilish darajasini aniqlash maqsadida ushbu g'oya mohiyatini o'zida batafsil mujassam etgan test savolnomasini ishlab chiqdik (2-3-ilovalar).

Ushbu nazariy savolnoma va amaliy topshiriqlar tajriba-sinov ishlarining boshi va oxirida o'quvchilar e'tiboriga havola etildi. Tajriba-sinov ishlari boshi va yakunida tajriba hamda nazorat guruhi o'quvchilari tomonidan qayd etilgan ko'rsatgichlar taqqoslandi hamda matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi. Mazkur holat biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotda sinovdan o'tkazilgan uslubiyatning samaradorligini tasdiqladi.

Kollej o'quvchilarining mavzu doirasidagi bilimni baholashda hofiz ijodidagi milliy-axloqiy fazilatlar tushunchalarining shakllanishini ko'rsatish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan nazorat ishlari natijalarini hisoblashda qulay bo'lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 ballik reyting tizimini qulay deb topdik. Bu jadvalda ifodalangan.

**3-jadval**

| <b>Baho</b>      | <b>«2»</b>   | <b>«3»</b>   |              |              | <b>«4»</b>   |              |              | <b>«5»</b>   |              |               |
|------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|---------------|
| <b>Ballar</b>    | <b>51-54</b> | <b>55-60</b> | <b>61-65</b> | <b>66-70</b> | <b>71-75</b> | <b>76-80</b> | <b>81-85</b> | <b>86-90</b> | <b>91-95</b> | <b>96-100</b> |
| <b>Tajriba I</b> | 3            | 2            | 3            | 4            | 7            | 9            | 10           | 10           | 9            | 3             |
| <b>Nazorat I</b> | 9            | 9            | 10           | 9            | 5            | 7            | 4            | 4            | 2            | 0             |

Ushbu jadvalni kollejning *“An’anaviy xonandalik (ansambl) artisti”* va *“Bolalar musiqa va san’at maktablarida an’anaviy xonandalik o’qituvchisi”* ixtisosliklarining DTS va namunaviy fan dasturida keltirilgan, belgilangan ilmiy-nazariy bilim, ko'nikma darajalar (asosida) bo'yicha quyidagicha baholarga aylantirdik:

III daraja – reproduktiv daraja bo'lib, DTS da belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning minimal darajasiga mos keladi – “3” baho.

II daraja – bu ham reproduktiv darajada qo'llaniladigan DTS dagi bilimlar darajasi bo'lib, bu darajada egallangan bilimlar «4» bilan baholandi.

I daraja – bilimlarni ijodiy qo'llash darajasi bo'lib – «5» bilan baholandi.

1. Reyting ko'rsatgichi – 100-86% - «5»
2. Reyting ko'rsatgichi – 85-71% - «4»
3. Reyting ko'rsatgichi – 70-55% - «3»
4. Reyting ko'rsatgichi – 54% - «2».

Tajriba-sinov ishlari jarayonida 119 o'quvchilardan olingan natijalar tahlil etilib, matematik-statistika metodi orqali o'quvchilar tarbiyasida Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi aniqlandi. Yuqoridagi 3-jadvalga asoslangan holda 4-jadvalni to'ldiramiz.

**4-jadval**

| 1 – tajriba guruhi |     |     |     |     | 2 – nazorat guruhi |     |     |     |     |
|--------------------|-----|-----|-----|-----|--------------------|-----|-----|-----|-----|
| $X_i$              | «2» | «3» | «4» | «5» | $X_j$              | «2» | «3» | «4» | «5» |
| $N_i$              | 3   | 9   | 26  | 22  | $N_j$              | 9   | 28  | 16  | 6   |

Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:


$$x = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^k n_i x_i = \frac{3 \cdot 2 + 9 \cdot 3 + 26 \cdot 4 + 22 \cdot 5}{60} = \frac{247}{60} = 4,11 \approx 4,1$$

$$y = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^k n_j x_j = \frac{9 \cdot 2 + 28 \cdot 3 + 16 \cdot 4 + 6 \cdot 5}{59} = \frac{196}{59} = 3,32 \approx 3,3$$

Demak, aytish mumkinki, tajriba guruhidagi o'rtacha baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori ekan. Shunday qilib, tajriba sinov ishlari jarayonida tajriba guruhi o'quvchilarining tarbiyasida Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali milliy-axloqiy sifatlarning shakllanish darajasi va ijro etish malakasining sezilarli darajada, ya'ni  $4,1 - 3,3 = 0,8$  ga ortganligi ma'lum bo'ldi.

Rasmda o'quvchilarning Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi mavzular bo'yicha baholarning o'rta arifmetik qiymatlari diagrammasi keltirilgan.

Baholarning o'rtacha arifmetik qiymati



Tajriba guruhlarida o'quvchilarning ko'rsatkichi yuqori bo'lishiga yana bir sabab xofiz ijrosini monitor ekranidagi materiallar bir vaqtning o'zida musiqa, tovush berilishi, harakat, animatsiali, joziba bilan o'quvchilarga taqdim etilishi va o'quvchilarning faollashuvi, multimediali materiallarning dinamik (jonli) holda berilishi, o'quvchilar diqqatini barqarorlashtirilishi, ular miyasining ikkala yarim sharining bir vaqtda ishlashi, o'quvchilarning o'rganiladigan materialga qiziqishi va ishtiyoqining ortishi natijasidadir.

### **Uchinchi bobga oid xulosa**

Ishning tajriba-sinov bosqichi olib borildi. Kollejnan tanlangan respondentlardan oldingan natijalar matematik, statistik taxlil qilindi. Ishimizda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rganish orqali hofiz haqida ilmiy-nazariy, tarbiyaviy jihatlarini taxlil qilindi va shu asosida quyida bir qancha tavsiyalar berildi.

Tajriba guruhidagi ishlarimizning samarasi o'laroq o'quvchi yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyatini nazariy jihatdan asoslandi. O'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib berildi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'quvchilarga maktab musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning ta'sirchan shakllari, usul va vositalarini ishlab chiqilganli o'z ijobiy natijasini ko'rsatdi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini singdirish jarayoni yoritilganligi aniqlandi.

Kollejning bo'lajak musiqa o'qituvchilariga musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishni samaradorligini oshirishga oid metodik tavsiyalar berildi.

## Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilanib, uni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan deb hisoblanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday yozadi: “Eng muhim vazifa shundan iboratki, o‘zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz-avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab, yanada boyitishimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo‘lmog‘imiz darkor”

Yuqoridagi bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib Hoji Abdulaziz Abdurasulovning musiqa ijodiga qo‘shgan hissalarini o‘quvchi-yoshlarga singdirish borasidagi metodika etarli darajada ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanmagan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov xonanda, sozanda, bastakor, O‘zbekiston xalq artisti. Tanbur ijrochiligi va Shashmaqomning cholg‘u yo‘llarini Hoji Raximberdidan, hofizlik san‘ati sirlarini hamda Nasr sho‘‘balarini samarqandlik Borux hofiz, keyinchalik Ota Jaloldan o‘rgangan. 1887-1888 va 1907-1908 yillarda Haj safarlarini qilib Eron, Arabiston, Hindiston, Afg‘oniston xalqlari musiqa madaniyati, ijrochilik uslublari bilan tanishgan. O‘z san‘atini ham namoyish etgan. 1920 yillari konsert guruhlarida qatnashgan, musiqa to‘garaklarini tashkil etgan. 1928-1931 yillarda Samarqand musiqa va xoreografiya institutida o‘qituvchi bo‘lan.

M.Ashrafiy, T.Sodiqov, YU.Rajabiy va R.Rajabiy, I.Ikromov, M.Burxonov, D.Zokirov, M.Leviev, N.Hasanov kabi san‘atkorlar Hoji Abdulazizdan ta’lim olishgan.

Hoji Abdulaziz murakkab ashulla yo‘llarini o‘z ovozigaga moslab, ijodiy yondoshgan holda o‘zbek va tojik tillarida mahorat bilan aytgan. U «Guluzorim»ga Zebo pari, «Beboqcha» va «Ushshoq» yo‘llariga Namudi Uzzol.

«Abdurahmonbegi»ga Namudi Navo avjlarini bogʻlab, ularning taʼsirchanlik va yoqimlilik kuchini ortirgan. «Ushshoq» shu tufayli ham «Ushshoqi Hoji» va «Samrqand Ushshogʻi» nomlari bilan mashhur boʻlgan. Bastakor yaratgan «Gullar bogʻi» ashullasi hozir ham xalqqa manzur.

Xonanda repertuarida 200 dan ortiq halq ashullalari va maqom yoʻllari boʻlib, ular ichida mumtoz musiqa asarlari asosiy oʻrin tutgan. Jumladan, «Ushshoq» uning «Rosti Panjgoh», «Iroq» va «Navo» maqomlari yoʻli, «Abdurahmonbegi -1», uning ufari, «Nasrullovi», «Iroq» ning qashgʻarchasi va ufari, «Gulyor», «Orazi Gulyor», «Ufar», «Arzimni aytay», «Qurbon oʻlam» va boshqa koʻplab kuy va ashulla yoʻllari alohida ajralib turadi. Ularni Hoji Abdulaziz SHarq mumtoz shoirlari Hofiz, Navoiy, Fizuliy, Zebuniso, Amiriy, Fazliy kabilarning gʻazallari bilan aytgan.

Hoji Abdulaziz mohir sozanda sifatida ham tanilgan boʻlib, maqom yoʻllarini tanbur va dutorda ijro etgan. Ijrosidagi koʻpgina ashullalar 1909 yildan boshlab gramplastinka va fonograflarga yozib olingan. Samarqand musiqa kollejiga Hoji Abdulaziz nomi berilgan. 1997 yildan Samarqandda Hoji Abdulaziz nomidagi xonandalar tanlovi oʻtkazilmoqda. U kishining vafotidan soʻng 2001 yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Ishimizda adabiyotlarda Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini oʻrganish orqali hofiz haqida ilmiy-nazariy maʼlumotlarni taxlil qilish asosida quyidagi vazifalar bajarildi:

1. Oʻquvchi yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini oʻrgatishning tarbiyaviy ahamiyatini nazariy jihatdan asoslandi.

2. Oʻquvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini oʻrgatishning oʻziga xos xususiyatlarini tahlil etildi.

3. Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini oʻquvchilarga maktab musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini oʻrgatishga yoʻnaltirilgan taʼlim-tarbiyaviy ishlarning taʼsirchan shakllari, usul va vositalarini ishlab chiqildi.

4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchi-yoshlarga Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish jarayoni yoritildi.

5. Kollejning bo'lajak musiqa o'qituvchilariga musiqa darslarida bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodini o'rgatishni samaradorligini oshirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o'rganishda jixozlangan xona, Nota daftar, ruchka, qalam, o'chirg'ich, chizg'ich, Eshituv va yozuv texnik vositalari, og'zaki, amaliy. o'qituvchi darsning xususiyatidan kelib chiqib darsni o'zi ijodiy belgilashi va yangiliklar kiritishi maqsadga muvofiq. SHuningdek, Abdulaziz Abdurasulovning ijodini o'rganishda audio, video, kompyuter texnikasi va DVD kabi didaktik vositalardan keng foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Xoji Abdulaziz ijodini o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalanilinish lozim. Ma'ruza, amaliy darslarida mavzuga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar tatbiq etish samaradorlikni yanada oshiradi.

Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi orqali kasb–hunar kolleji o'quvchi-yoshlarini tarbiyalashda ijtimoiy–gumanitar fanlarning imkoniyatlari yetarli ekanligiga ishonch hosil qildik. Jumladan:

- ijtimoiy–gumanitar fanlardagi bob va mavzulari o'quvchilarda Abdulaziz Abdurasulov ijodini o'rganishga xizmat qiladi;
- kasb–hunar kolleji o'quvchilarida Abdulaziz Abdurasulov ijodini o'rganish va shakllantirishda ijtimoiy– gumanitar fanlarni o'qitish yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitilishiga e'tiborni qaratish lozim;
- kasb–hunar kolleji o'quvchilari bilan viloyat respublika miqyosidagi targ'ibot uchrashuvlarini muntazam yo'lga qo'yish kerak;
- auditoriya, kollej koridorlarida, hovlisida, o'quvchilar turar joylarida hofizning axloqiy, tarbiyaviy hikmatli so'zlar bilan bezatish lozim.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda kasb–hunar kolleji o'quvchilarida Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi o'z tarbiyaviy ta'sirini o'tkazadi. SHuning

bilan birgalikda jamiyatimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo`ladi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidneti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

1. "O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi". T., "O'zbekiston", 2010 yil, 46-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997. – 20-29 b.
3. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 23 sentyabrda «1999-2005 yillarda akademik litseylar va kasb hunar kollejlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi» to'g'risidagi qarori. Ma'rifat gazetasi. 1998 yil 24 sentyabr.
4. Pedagogika kasb-hunar kollejlari «Ixtisoslashtirilgan (maxsus), boshlang'ich ta'lim muassasalari va mehribonlik uylari tarbiyachisi» yo'nalish namunaviy o'quv dasturi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012-yil 15-avgustdagi 332/1-sonli buyrug'i .

### **II. O'zbekiston Respublikasi prezidneti asarlari**

5. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat //Tuzuvchi va nashr uchun mas'ullar: N.Komilov, K.Bo'ronov. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 129 b.
6. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili // Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 3-35 b.
7. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: "O'zbekiston", 2001. – B. 100.
9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 2014 yil,100 -bet.

10. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy soatdir. “O‘zbekiston”, 2015, 304-bet.

### **III. Asosiy adabiyotlar**

11. Alisher Navoiy. «Maxbub ul- qulub». Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1983 y. 65- bet.

12. Aminjon Sharipov “Hofiz yurgan yo'llarda” Samarqand, “Zarafshon”, 1996. 60 b.

13. Ahmedov Mahmud “Doni Zokirov” T.: “Ibn Sino”, 1995. 69-98-b.

14. Ahmedov M. «YUnus Rajabiy», T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 1980. 14-18-b.

15. Ahmedova M., Olimboeva K., «O'zbek xalq sozandalari» to'plami. T.: 1959. G'ofurov Olimjon Xush navo istar ko'ngil. T.: «Navro'z», 2013. 36-b.

16. Otomurodov S. “Ma'naviyat asoslari”. “Abdulla Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti”. T., 2002 yil

17 Mavlonova R., O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. «Pedagogika» “O'qituvchi” Toshkent, 2008.

18. Mardonova. G.. “Nur to'ladi”, T., “Mehnat, 1992 yil, 86-bet.

19. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dokt. dis. – T., 1993. - 36 b.

20. Olimov Sh. «Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti» dok. Dissertasiyasi aftoref., 2012-yil, 23-b.

21. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun qo'll. - Toshkent, O'qituvchi, 1996, - 301-bet.

22. Toxtaxodjayeva M.X., umumiy tahriri ostida Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi), — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. 158-106 b.

23. Toshov Muhiddin Jo'raboyevich. “Pedagogika kollejlari ta'limi jarayonida pedagogik integrasiyaning mazmuni va tuzilmasini ta'minlash”. Ped. Fan. nom. Diss. Toshkent – 2012 yil.157 b.

#### **IV. Qo‘shimcha adabiyotlar**

24. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 14-tom. T.: «O‘zbek sovet ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1980 yil, 453-b.
25. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 11-tom. Toshkent, «O‘zbek milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2005 yil, 368-b.
26. O‘zbek xalq muzikasi. 1-4-jildlar, T.: 1955. 58-b.
27. Xonandalik ansambli fanidan o‘quv dasturi. Vazirlikning 2012 yil 15 avgustdagi 332-1-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. 6-8 betlar.
28. Bastakorlar ijodi fanidan o‘quv dasturi. Vazirlikning 2012 yil 15 avgustdagi 332-1-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. 5-7 bet.
29. Badirov A., Kiyamon N., Xoliqulov R. Samarqanddan taralgay jahonga SHARQ TARONALARI. T.: «Navro‘z», 2013. 10-b.
30. YUsupov Hasan. Xalq suygan san’atkor. T.: “Istiqlol”, 2012 yil, 72 bet.
31. Samarqanddan taralgay jahonga SHARQ TARONALARI. T.: «Navro‘z», 2013. 10-11-b.
32. Olimjon G‘afurov, Ravshan Hamroqulovlar “Abdulaziz hofiz” Samarqand, 1996. 86 b.
33. SHaripov A. Hofiz yurgan yo‘llarda. Samarqand. “Zarafshon”, 1996. 42-b.
34. Tuxtaev Uktam. «Mumtoz navolar», Uslubiy qo‘llanma, Samarqand, 2009. 9-14-bet.

#### **V. Davriy nashrlar statistik to‘plamlar va xisobotlar**

35. Shodiyev N., Sulaymanova D. Talabalarni ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlash. //“Intellectual salohiyatli iqtidorli yoshlar” mavzusidagi yosh olimlar, magistrant va talabalarning an’anaviy XI Respublika ilmiy-amaliy konfirensiyasi\\ Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. III qism. 2014. 124-126 b.
36. Shodiyev N. Sulaymanova D. Pedagogika fanini o‘qitish jarayonida kollej talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. //Voyaga yetmaganlar nazoratsizligining oldini olishda oila, uzluksiz ta’lim muassasalari, mahalla va

huquq-tartibot organlarining o'zaro hamkorligi\ Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. "Guliston", 2014. 119-121 b.

37. Abduquddusov O. O'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari / Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2002.

38. Ashurov N.R. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda milliy qadriyatlardan foydalanish. // "Xalq ta'limi" jurnali. –T.: 2005. –№2. –B. 116-120 b.

39. Ochilova N. O'qituvchi odobining talab-qoidalari. //Xalq ta'limi. 1997 y. 2-son, 27-32 b.

40. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

41. [www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)

42. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

